



MILLIY ARMIYA – ONA YURT QALQONI, TINCHLIGIMIZ POSBONI!

"YAGONA VATAN, YAGONA XALQ BO'LIB,  
YANGI HAYOT VA KELAJAK YARATAMIZ!"

# VATANPARVAR



Qanotim yo'q, vate uchmaymen...



IJTIMOIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY,  
HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

GAZETA 1992-YILNING  
4-IYUNIDAN CHIQA BOSHLAGAN  
[WWW.MV-VATANPARVAR.UZ](http://WWW.MV-VATANPARVAR.UZ)

2026-YIL 24-APREL  
№17 (3183)



Katta hayot maktabi

# E'TIBOR VA QO'LLOVLAR

# YOSHLARNI

# ULKAN KUCHGA AYLANTIRADI

Bugun yoshlar masalasi davlat siyosatidagi eng muhim yo'nalishlardan biriga aylanib borayotgani hech kimga sir emas. Jahonda axborot maydoni kengayib, yoshlar ongiga turli g'oyaviy ta'sirlar kuchayib borayotgan bir sharoitda ularning ta'lim olishi, kasb egallashi va jamiyatda munosib o'rin topishiga ko'maklashish masalalari har qachongidan ham izchil davom etmoqda.

2026-yil 13-yanvar kuni o'tkazilgan Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishi mamlakat hayotida muhim ahamiyat kasb etdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev raisligida bo'lib o'tgan mazkur yig'ilishda harbiy xavfsizlik va mudofaa tizimini yanada mustahkamlash bilan birga uning mazmun-mohiyatiga yangicha ruh bag'ishlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Ayniqsa, bu jarayonda yoshlar masalasi ustuvor yo'nalish sifatida ilgari surildi. **“Bir so'z bilan aytganda, “muddatli harbiy xizmatni o'tash – yoshlar uchun muvaffaqiyat yo'li”ga aylanishi kerak**”, dedi Prezidentimiz. Bu g'oya harbiy xizmatga faqat burch sifatida emas, balki shaxs kamoloti, kasbiy rivojlanish va kelajak poydevorini mustahkamlash imkoniyati sifatida qarashni talab etadi.

Shu nuqtayi nazardan, harbiy qismlarda yoshlarning qobiliyati va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda qisqa muddatli kasbga tayyorlash dasturlarini joriy etish, ularni zamonaviy bilim va ko'nikmalar bilan ta'minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa armiyani nafaqat kuchli mudofaa tizimiga, balki yoshlar uchun haqiqiy hayot maktabiga aylantirishga xizmat qiladi.

Biz ko'pincha **“Yoshlar – kelajagimiz”** degan fikrni aytamiz. Lekin men ayni damda **“yoshlar nafaqat kelajagimiz, balki bugungi kunimiz hamdir”** degan xulosaga kelyapman. Chunki davlatning ertangi qiyofasi aynan bugun tarbiya topayotgan yoshlar orqali shakllanadi. Shu bois yoshlar bilan ishlash, ularni qo'llab-quvvatlash, muammolarini eshitish va yechim topish masalasi har qachongidan ham dolzarb



ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan mamlakatimizda har haftaning payshanba kuni vazirlik, idora va hokimliklarda **“Yoshlar kuni”** etib belgilangani, ishonamanki, nafaqat yoshlarni, balki shu elda istiqomat qilayotgan har bir yurtdoshimizni dildan quvontirdi.

Ayniqsa, bu masalaning Qurolli Kuchlar tizimidagi ahamiyatini alohida ta'kidlagim keladi. Chunki armiya nafaqat davlat xavfsizligining kafolati, balki yoshlarni tarbiyalaydigan, ularning xarakterini, dunyoqarashini shakllantiradigan katta hayot maktabidir.

## YOSHLARGA, AVVALO, ISHONCH VA KO'MAK KERAK

Yuqoridagi tashabbus ijrosi bo'yicha Mudofaa vazirligida ham katta qadamlar tashlanayotganini bir o'zbek farzandi o'laroq, e'tirof etgim keladi. Mudofaa vazirining **“Mudofaa vazirligi qo'shinlarida yoshlar bilan ishlash samaradorligini yanada oshirish to'g'risida”**gi buyrug'i bu borada aniq vazifalarni yanada mustahkamlab berdi. Bu hujjat shunchaki rasmiy chora-tadbirlar emas, balki yoshlar bilan ishlashni yanada tizimli, maqsadli va samarali

tashkil etishga qaratilgan amaliy dastur bo'ldi, desam, yangilishmagan bo'laman. Ayniqsa, Mudofaa vazirligi qo'shinlarida ham haftaning har payshanbasi **“Yoshlar kuni”** etib belgilangani bu boradagi ishlarni yanada jonlantirishiga ishonaman. Bu tashabbus orqali armiya va yoshlar o'rtasidagi ishonch yanada mustahkamlanadi, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratiladi. Chunki **vatanparvarlik tuyg'usi inson qalbida tabiiy ravishda paydo bo'lmaydi, uni tarbiyalash, mustahkamlash zarur va shart!**

Shu nuqtayi nazardan, armiya oldida turgan ayrim tashabbuslarning mazmun-mohiyatiga to'xtalib o'tish joiz. Jumladan, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda Yoshlar ishlari agentligi bilan hamkorlikda otaliqqa olingan yoshlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar alohida ahamiyatga ega, deb o'ylayman. Chunki yoshlarning ijtimoiy-maishiy muammosi hal etilmasa, uning qalbida ertangi kunga ishonch bo'lmaydi. Shuning uchun bu yo'nalishda olib borilayotgan ishlar yoshlarning hayotda o'z o'rnini topishiga xizmat qiladi. Menimcha, yoshlar o'z imkoniyatlarini namoyon qilishi uchun, **avvalo,**

**ularga ishonch va ko'mak kerak.** Armiya tomonidan ko'rsatilayotgan ana shunday e'tibor yoshlarning jamiyatda faol, mas'uliyatli inson bo'lib kamol topishiga katta turtki beradi.

Hududlardagi harbiy qism va muassasalarda bu tadbirlarni **“Harbiy qism yettiligi”** hamkorligida tashkil etish belgilangani ham tizimli ishlashga xizmat qiladi, deb o'ylayman. Chunki yoshlar bilan ishlash bir martalik tadbir bilan emas, balki rejali va uzluksiz jarayon orqali samara beradi. Mening fikrimcha, bu yerda eng quvonarli jihat shundaki, amalga oshirilayotgan ishlar rasmiyatchilik uchun emas, balki yoshlar va yosh harbiy xizmatchilarning aniq muammolarini o'rganish va ularga yechim topishga qaratilmoqda.

Masalan, kontrakt bo'yicha xizmat qilayotgan yosh harbiy xizmatchilar, kursantlar va birlashtirilgan yoshlar bilan ochiq muloqotlar o'tkazish rejalashtirilgan. Bilamizki, ochiq muloqot har qanday muammoni hal qilishning eng samarali yo'lidir. Chunki yosh avlod o'z fikrini erkin ayta olsa, uning qalbida ishonch paydo bo'ladi. Shu muloqotlarda ularning orzu-intilishlari, qiynayotgan muammolari, kelajak rejalarini to'g'ridan to'g'ri eshitish mumkin.



Muddatli harbiy xizmatchilar va o'quvchi-yoshlar o'rtasida tashkil etiladigan uchrashuvlar ham juda samarali natija beradi, deb o'ylayman. Chunki **hayotda shunday savollar bo'ladiki, yoshlar ularni kattalardan so'rashga iymnadi.** Ammo yosh harbiy xizmatchilar bilan muloqotda ular o'z fikrini erkin bayon qilishi mumkin. Menimcha, aynan shu kabi muloqotlar orqali yoshlar hayot haqida, Vatan oldidagi burch haqida, mas'uliyat va jasorat haqida to'g'ri tushunchaga ega bo'ladi.

Shuningdek, **"Jasorat maktabi", "Temurbeklar maktabi"** va **"Jaloliddin Manguberdi"** harbiy akademik litseyi o'quvchilari bilan ochiq muloqotlar o'tkazilishi ham muhim ahamiyatga ega. Chunki bu ta'lim muassasalarida o'qiyotgan yoshlar kelajakda mamlakatimiz mudofaasiga xizmat qiladigan avlod hisoblanadi. Ularning fikrini eshitish, muammolarini o'rganish va ularga to'g'ri yo'l ko'rsatish orqali kelajakdagi ofitserlar, Vatan himoyachilari kamol topadi.

Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti tinglovchilari bilan muloqotlar o'tkazilishi ham bilim va tajriba almashinuvi uchun muhim imkoniyat yaratadi. Chunki bu yerda faqat bilim emas, balki mas'uliyat, liderlik va Vatan taqdiri uchun javobgarlik hissi shakllanadi.

Men yana bir muhim tashabbusni alohida ta'kidlab o'tmoqchiman. Bilamizki, armiyamizda doimiy o'tkazib kelinayotgan **"Askar onalarini sharafalaymiz"** loyihasi samarali natijalar berdi. **Chunki har bir askarning ortida uni tarbiyalagan, duo bilan kuzatgan ona turibdi. Ona duosi askarning eng katta madadidir.** Shu tashabbusning uzviy davomi

sifatida yosh harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari bilan muloqotlar o'tkazish, ularning muammolarini o'rganish va amaliy yordam ko'rsatish ishlari yo'lga qo'yilayotgani ham juda to'g'ri qaror, deb o'ylayman. Chunki oilasi xotirjam bo'lgan harbiy xizmatchi o'z vazifasini ham yuksak mas'uliyat bilan bajaradi.

Shu bilan birga, texnikum va kasb-hunar kollejlari talabalarini bilan uchrashuvlar tashkil etish, **"Chempion va yoshlar"** kabi muloqotlar yoshlarning dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, **"Bitta askar - bitta kasb"** tamoyili asosida o'tkazilayotgan mashg'ulotlar juda dolzarb ahamiyatga ega. Chunki bu tashabbus orqali har bir askar xizmat davomida nafaqat harbiy tayyorgarlikka ega bo'ladi, balki muayyan kasbni ham o'rganadi. Bu esa xizmatdan keyin uning hayotda o'z yo'lini topishiga yordam beradi.

#### MUAMMOLARNI BERKITADIGAN KUNLAR O'TDI

Bugungi ochiqlik siyosati, avvalo, bizdan faoliyatimizga tanqidiy ko'z bilan qarashni talab etmoqda. Yuqoridagi tadbirlarning o'tkazilishida oliy ta'lim muassasalaridagi kun tartibi va darslar jadvaliga muvofiq, o'quv jarayonlariga xalaqit bermagan holda tashkil etilishi ko'zda tutilgan. Bu esa yoshlarning ta'lim olish jarayoniga zarar yetkazmagan holda ularni tarbiyaviy va ma'rifiy tadbirlarga keng jalb etish imkonini beradi.

Asosiy maqsad yoshlar ongi va qalbida vatanparvarlik tuyg'usini yanada mustahkamlash, Qurolli Kuchlarimizning shonli tarixi,

bugungi salohiyati va mamlakat xavfsizligini ta'minlashdagi o'rni haqida keng tushuncha berishga qaratilgan. Shu orqali yosh avlodga Vatan taqdiriga daxldorlik hissini kuchaytirish, harbiy xizmatga hurmat va mas'uliyat bilan qarash madaniyatini shakllantirish ko'zda tutilmoqda.

**Tan olish kerakki, shu kungacha yoshlar bilan ishlash masalasida ayrim kamchiliklar va yuzaki yondashuvlar ham kuzatilgan.** Mudofaa vazirligi tizimida ham bu borada ma'lum muammolar mavjud ekanidan ko'z yummaganda holda ularni bartaraf etish borasida shaffof qadamlar tashlanayotganini ta'kidlash joiz.

Jumladan, tahlillar Mudofaa vazirligi markaziy apparati va ta'lim tizimi o'rtasida yetarlicha samarali hamkorlik yo'lga qo'yilmaganini ko'rsatdi. Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda asosiy e'tibor ko'proq talabalar, maktab o'quvchilari hamda "og'ir" toifadagi yoshlar bilan ishlashga qaratilgan bo'lib, yosh harbiy xizmatchilar bilan o'tkaziladigan tadbirlar umumiy ko'rsatkichning atigi 15 foizini tashkil etgan. Bu esa mazkur yo'nalishdagi

va ma'naviy muhitni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

#### KUTILAYOTGANNATIJALAR

O'ylaymanki, amalga oshirilayotgan mazkur tashabbuslar natijasida, yoshlar va aholi o'rtasida milliy armiyamizga bo'lgan ishonch yanada mustahkamlanadi, jamiyat va Qurolli Kuchlar o'rtasida o'zaro yaqinlik va hamkorlik muhiti kuchayadi. Eng muhimi, yoshlar qalbida sog'lom dunyoqarash va Vatan taqdiriga daxldorlik hissi shakllanadi.

Shuningdek, asosiy e'tibor yosh harbiy xizmatchilarga qaratilgani natijasida qo'shinlarda amalga oshirilayotgan profilaktik tadbirlarning samaradorligi ortadi. Bu esa xizmat intizomini mustahkamlashga, turli ko'rinishdagi huquqbuzarliklarning oldini olishga xizmat qiladi.

Bu hali hammasi emas. Yoshlarning jamiyat hayotidagi faolligi va tashabbuskorligi oshib, ularning fuqarolik pozitsiyasi yanada mustahkamlanadi. Yosh oilalardagi ijtimoiy-psixologik muhit yaxshilanib, xizmat samaradorligi ortadi, vatanparvarlik tuyg'ulari yanada kuchayadi.



ishlarni yanada faollashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Shuningdek, yosh harbiy xizmatchilar bilan ochiq muloqot shaklidagi uchrashuvlar yetarli darajada, tizimli tashkil etilmagan. Ko'p hollarda ularning muammo va takliflari faqat sayyor qabullar davomida tinglanib kelgan. **Aslida esa yoshlar bilan muntazam muloqot qilish, ularning fikr va tashabbuslarini eshitish hamda amaliy yordam ko'rsatish harbiy jamoalarda sog'lom muhitni shakllantirishning muhim omili hisoblanadi.**

"Yoshlar kuni" doirasida amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini oshirish maqsadida oylik tahlillar tizimini yo'lga qo'yish rejalashtirilgan. Bunda yoshlar muammolarini hal etishda ilgari surilgan tashabbuslar, erishilgan ijobiy natijalar o'rganilib, samarali tajribalar boshqa harbiy qism va muassasalarga tatbiq etiladi. Shu bilan birga, o'z vazifasiga mas'uliyatsizlik bilan yondashgan mansabdor shaxslarga nisbatan tegishli ta'sir choralarini ko'rilishi ham nazarda tutilmoqda.

Eng muhimi, barcha tadbirlar harbiy qism "yettiligi" bilan hamkorlikda rejalashtirilib, amalga oshiriladi. Bu esa yoshlar bilan ishlashda tizimlilikni ta'minlab, harbiy jamoalarda tarbiyaviy

Bundan tashqari, yoshlar va yosh harbiy xizmatchilar muammolarini erta bosqichda aniqlash imkoniyati yaratiladi, turli byurokratik to'siqlarning kamayishiga erishiladi. Ularning bandligini ta'minlashga yaqindan ko'maklashish orqali mamlakatda ishsizlik darajasini kamaytirishga ham muayyan hissa qo'shiladi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar bilan ishlash masalasi bugungi kunda **nafaqat tarbiyaviy, balki strategik ahamiyatga ega vazifa,** deb hisoblayman. Chunki kuchli davlat - ma'naviyati yuksak, bilimli va vatanparvar yoshlar bilan barpo etiladi. Yoshlarga e'tibor qaratish, ularning muammolarini eshitish va ularga imkoniyat yaratish orqali biz nafaqat bugungi kunni, balki kelajagimizni ham mustahkamlaymiz.

Men ishonamanki, armiyada yoshlar bilan ishlash borasida amalga oshirilayotgan bu kabi tashabbuslar yurtimizda vatanparvar, bilimli va mas'uliyatli avlod kamol topishiga xizmat qiladi. Chunki Vatan taqdiriga befarq bo'lmagan yoshlar bor joyda davlat hamisha kuchli bo'ladi.

**Olimjon O'SAROV,**  
mudofaa vazirining  
vatanparvarlik targ'iboti,  
ma'naviy-ma'rifiy ishlar hamda  
yoshlar masalalari bo'yicha  
maslahatchisi



Muzeydan gapiramiz

# TEMURIYLARDAN QOLGAN KULOLCHILIK NAMUNALARI

**Temuriylar tarixi davlat muzeyida Amir Temur va Temuriylar davriga oid hunarmandchilik buyumlari talaygina. Yillar sayin muzey ekspozitsiyasi va fondlaridagi ashyolar soni bir necha barobarga ko'payib bormoqda. Muzeydagi har bir eksponat o'zining noyobligi va betakrorligi bilan qiziqarlidir.**

Muzeyda saqlanib kelinayotgan Temuriylar davriga oid hunarmandchilik buyumlaridan Shohruxiya qal'a-shahridagi arxeologik qazishmalardan topilgan sopol buyumlar, Samarqand shahridan topilgan bronza buyumlar, qush tasviri, lotos guli tasviri aks etgan sopol laganlar, shamdon, Shahrisabz shahridagi Oqsaroy, Samarqanddagi Bibixonim masjidi va Ulug'bek madrasasidan topilgan me'moriy qoplamalar va boshqa bir qator eksponatlar e'tiborga loyiq.

Bugungi kunda muzey kolleksiyasida ushbu davrga oid **55 tadan** ziyod kandakorlik buyumi, **33 ta** tosh buyumi (*asosan Shohruxiyadan topilgan*) – qayroqtosh, urchuq, qabr usti toshlari, surmatosh va boshqalar, **27 ta** shisha buyum, **500 tadan** ziyod sopol buyum, **16 ta** zargarlik buyumi saqlanib kelinmoqda. Zargarlik buyumlari orasida Bibixonim qabridan topilgan taqinchoq,



Mironshoh qabridan chiqqan munchoq bo'laklari alohida ahamiyatga ega. Kolleksiyaning eng nafis buyumlari bu, albatta, sopol idishlardir.

Markaziy Osiyo hududida, ayniqsa Temuriylar davlatida ilm, fan, madaniyat hamda san'atning yuqori darajada rivojlanishiga katta ahamiyat berilib, kerakli sharoitlar yaratilgan edi. Amir Temur ulkan va qudratli saltanat barpo etib, ma'naviy madaniyatning yuksalishi, gullab-yashnashi uchun, o'tmish davrlar ajoyib an'alarining yangi tarixiy vaziyatda qayta tiklanishi uchun sharoit yaratdi. XV asr oxiri – XVI asr boshlarida hunarmandchilikning turli tarmoqlari rivoj topib, iste'mol mollarini ishlab chiqarish g'oyat ko'paydi. Bu davrda Movarounnahrning Samarqand, Buxoro, Toshkent, Shohruxiya, Andijon, Termiz, Shahrisabz, Qarshi va boshqa ko'pgina shaharlari o'zining topografik qiyofasi, aholisining kasb-kori, ichki va tashqi aloqalari bilan o'rta asr Sharqining hunarmandchilik va gavjum savdo markazlariga aylandi. Shaharlarda hunarmandchilik mahallalarining soni ortib, kasb-hunar bilan bog'liq bo'lgan yangi-yangi guzarlar, ko'chalar, bozor rastalari vujudga keladi.

Hunarmandchilik sohasida kulolchilik yuksak darajada rivojlangan edi. Sirkor kulolchilik

rivojidagi beqiyos yuksalish XIV asr oxiri – XV asr boshlariga to'g'ri keladi. Movarounnahr va Xurosonda kulolchilik san'ati markazlari yana tiklana boshladi. Amir Temur va Temuriylar davrida kulolchilikning yangi turi – mahalliy koshindan foydalanish asosida, Xitoydan keltirilgan chinniga taqlid paydo bo'ldi. Amir Temur va Temuriylar davri sopol buyumlarining farqi ranglar uyg'unligida, bezaklar majmuida va texnologik usullarda o'z ifodasini topgan. Rangi jihatidan idishlar monoxrom va polixrom turlarga bo'linadi. Monoxrom turida idishning asosiy yorqin foni bo'yicha ko'k rangda naqshlanadi, bu eng ommaviy tur hisoblangan yoki qora rang bilan naqshlangan idish ustidan havorang sir berilgan bo'lib, u kam uchraydi. Polixrom turida ko'k, to'q jigarrang va havorang bo'yoqlar qo'llaniladi. Temuriylar davriga kelib, kulolchilik madaniyatida katta o'zgarishlar ro'y berdi, eski uslubdan voz kechish jarayoni yuzaga keldi. Shu bilan birga, yangi uslub, shakl, ranglarga o'tish keng ko'lamda joriy etildi. Shu kungacha saqlanib qolgan moviy va ko'k ranglar Temuriylar davridan buyon sevimli rangga aylani bo'lganki, u uy-ro'zg'or sopol buyumlarida hanz ishlatiladi.

Temuriylar davri sopol idishlaridagi bejirim bezaklar, islomiy naqshlar, yorqin bo'yoqlarining bugungi kungacha saqlanib qolgani hali-hamon olimlarni hayratga solmoqda. Bular orasida o'zining nafis naqshlari va noyobligi bilan ajralib turadigan tovus tasviri aks etgan kosa shular jumlasidandir. Kosa yuzasidagi quyucuk va rang-barang butazorda yurib ketayotgan tovus tasviri o'sha davr hunarmandlari va buyurtmachilarning didi nechog'li nozik ekanini ko'rsatadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, ushbu idishda Xitoydan keltirilgan chinniga taqlid biroz sezilsa-da, ammo sokin ranglar uyg'unligi, bezaklar majmui yangicha ko'rinishda namoyon bo'lgan. Tovusning qiyofasi shu qadar tabiiy tarzda tasvirlanganiki, qush bo'ynining ajoyib qayrilgani, boshidagi uchta patdan iborat bo'lgan bashang toji, tanasining notabiiy egikligi tasvirning dekorativligini belgilaydi. Qush figurasi kompozitsion taqsimi ham juda mohirona yechilgan bo'lib, harakatda bo'lgan tovus tasavvurini beradi.

Shu kabi idishlardan yana biri nilufar (*lotos*) guli tasvirli sirlangan sopol lagandir. Laganning kompozitsion markazini belgilab beruvchi nilufar guli hunarmand tomonidan juda aniq va



mohirona ifodalab berilgan. Markazidagi katta gul atrofida tasvirlangan qamishni eslatadigan nishtarsimon barglar va gul g'unchalaridan tashkil topgan naqshlar, oq va to'qroq ko'k ranglarning uyg'unligi o'ziga xos ahamiyatga ega. Ushbu lagan Temuriylar davrining kulolchilikdagi yutuqlaridan biri bo'lgan koshin loyini qattiqlashtirish, asl chinniga yaqinlashtirish usulida ishlangan idishlar namunasidandir.

XIV–XV asrlar hunarmandchiligiga tegishli bo'lgan, Samarqand shahridan topilgan yana bir idish namunasi yulduz tasvirli lagandir. Lagan markazidagi doira ichiga olingan va undan olti qirrali yulduzga mohirona o'tib ketadigan bezak tasviri kishining e'tiborini o'ziga jalb qiladi. Yulduz qirralari orasida ekzotik o'simlik barglarini, lab qismidagi barg va mevalar shaklidagi o'simliksimon bezaklarni ko'k rangli bo'yoqning turli tuslarida tasvirlanishi o'sha davr hunarmandlarining qanchalik ijodkorligini, mohirligini ko'rsatib beradi.

XIV–XV asrlar hunarmandchiligi namunalari orasida nafaqat kosa, piyola, laganlarni, balki sopol shamdonlarni ham esga olish maqsadga muvofiqdir. Temuriylar tarixi davlat muzeyi fondidagi kulolchilik namunalari orasida bir qancha sopol shamdonlar va ularning fragmentlari saqlanadi. Ularning eng qadimiysi XII asr hunarmandlarining mahsuli hisoblanadi. Ushbu shamdonlar orasida XV asr Toshkent hunarmandlarining nozik didi namunasi hisoblangan o'simliksimon naqsh va geometrik elementlardan iborat bo'lgan yaxlit nafis bezak bilan bezatilgan shamdonga e'tibor qaratamiz. Shamdonning bejirim cho'ziq shakldagi tagligi bir-biriga orqama-orqa to'ntarilgan kosani esga soladi, ular ustiga esa likopchasimon rezervuar hamda tepaga qarab ketadigan baland silindrik shakldagi oyoqcha o'rnatilgan. Ushbu tipdagi shamdonlar xonadonlarga nafaqat yorug'lik, balki o'ziga xos go'zallik ham berib turgan.

Muzey ekspozitsiyasi va kolleksiyasidan o'rin olgan shu kabi noyob, o'ziga xos tasvirlarga ega bo'lgan nafaqat sopol buyumlar, balki Temuriylar davri badiiy hunarmandchiligining barcha yo'nalishlariga xos yuzlab namunalar o'sha davr madaniyatining boshqa sohalariga singari jahon sivilizatsiyasi tarixida ajoyib sahifani ochib berganini, ulkan mintaqadagi bezir san'at durdonalari yaratgan xalqlar ijodiy dahosining beqiyos yuksalish davri ekanini o'zida namoyon etadi. Ushbu davrda yaratilgan san'at durdonalarini avaylab-asrash, saqlash hamda kelajak avlodga benuqson topshirish muzeylarimizning asosiy vazifadir.

**Shahnoza MIRALIYeva,**  
tarix fanlari bo'yicha  
falsafa doktori

O'quv-uslubiy yig'in

# TIBBIYOT MUTAXASSISLARI MUHOKAMASI

**Tibbiyot sohasidagi bilim va ko'nikmalarni muntazam ravishda yangilab borish, zamonaviy diagnostika va davolash usullarini amaliyotga joriy etish, shuningdek mutaxassislar o'rtasida samarali tajriba almashish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Zero sohada yuz berayotgan tezkor ilmiy-texnik taraqqiyot shifokorlardan doimiy izlanish va o'z ustida ishlashni talab etadi.**



Mudofaa vazirligi Markaziy harbiy klinik gospitalida tibbiyot xodimlarining kasbiy salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan o'quv-uslubiy yig'in yuqori saviyada tashkil etildi. Unda tibbiyot mutaxassislari, sanitariya-epidemiologiya nazorati bo'limi boshliqlari, harbiy-tibbiy komissiya raislari, dorixona

almashish imkonini yaratdi. Ayniqsa, harbiy tibbiyotga xos bo'lgan favqulodda vaziyatlarda tezkor va aniq tibbiy yordam ko'rsatish, jarohatlanganlarga dastlabki yordam berish hamda reabilitatsiya jarayonlarini samarali tashkil etish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

samaradorligi, shuningdek dori vositalari va tibbiyotga oid mahsulotlar bilan ta'minlash darajasi atroflicha tahlil qilindi.

Ma'ruzalar jarayonida sohadagi yutuqlar bilan bir qatorda, yechimini kutayotgan dolzarb masalalarga ham alohida e'tibor qaratildi. Xususan, tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini yanada oshirish, harbiy qism va muassasalarda profilaktik tadbirlarni tizimli yo'lga qo'yish, zamonaviy tashxis va davolash standartlarini keng joriy etish va kadrlar masalasi bo'yicha aniq taklif va tavsiyalar ilgari surildi. Shu asosda kelgusi o'quv yili uchun ustuvor vazifalar belgilab olindi.

Shuningdek, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini turli kasalliklardan ishonchli himoyalash, kasalliklarni erta aniqlashga qaratilgan profilaktika va skrining dasturlarini kengaytirish, zamonaviy davolash imkoniyatlaridan samarali

foydalanish masalalari muhokama qilindi. Bu borada raqamli tibbiyot elementlarini joriy etish, telemeditsina xizmatlarini rivojlantirish va masofaviy tibbiy maslahatlarni yo'lga qo'yish muhim yo'nalish sifatida qayd etildi.

Bundan tashqari, harbiy-tibbiy muassasalar infratuzilmasini yanada rivojlantirish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, zamonaviy tibbiy jihoz va uskunalar bilan ta'minlash orqali tibbiy xizmat sifatini yangi bosqichga olib chiqish masalalariga alohida urg'u berildi. Tibbiyot xodimlarining kasbiy salohiyatini oshirish maqsadida ularni mahalliy va xorijdagi yetakchi klinikalarda malaka oshirish kurslariga yuborish, ilg'or tajribalarni o'rganish va amaliyotga tatbiq etish yuzasidan ham fikr almashildi.

Umuman olganda, mazkur o'quv-uslubiy yig'in sohada amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini yanada kuchaytirish, mavjud muammolarga aniq yechim topish hamda harbiy tibbiyotni izchil rivojlantirishga xizmat qiladigan muhim muloqot maydoniga aylandi.

**Leytenant  
Mansurbek JABBOROV,  
"Vatanparvar"**



boshliqlari, terapiya, jarrohlik va yuqumli kasalliklar bo'limlari boshliqlari ishtirok etdi.

Tadbirda mutaxassislar zamonaviy tibbiyotda qo'llanilayotgan yangi usul va texnologiyalar, tashxis qo'yishdagi ilg'or yondashuvlar, shuningdek murakkab klinik holatlarda to'g'ri qaror qabul qilish bo'yicha o'zaro fikr almashib, amaliy tajribalarini yanada boyitdi.

Jarayon davomida turli klinik holatlar misolida tahlillar o'tkazilib, har bir vaziyatga individual yondashuvning ahamiyati alohida ta'kidlandi. Shuningdek, shifokorlarning tezkor fikrlash qobiliyatini oshirish, xavfli vaziyatlarda aniq va samarali harakat qilish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan interfaol muhokamalar tashkil etildi. Bu esa ishtirokchilarga o'z bilimlarini amaliyotda mustahkamlash, mavjud muammolarga birgalikda yechim izlash va o'zaro fikr



Yig'in doirasida ma'ruza qilgan mutaxassislar tomonidan 2025/2026-o'quv yili yakunlari bo'yicha qo'shinlar tibbiy ta'minotining holati, o'tkazilgan davolash-diagnostika jarayonlari, tibbiy ekspertiza ishlarining



Zaxiradagi jangchi



**Harbiy libos – bu shunchaki kiyim emas, u fidoyilik, mas’uliyat va Vatanga sadoqat timsoli. Ammo shu muqaddas burchni ado etayotganlar safida shunday insonlar borki, ularning qo’lida qurol emas, balki hayotni asrab qoluvchi shifo bor. Ular eng og’ir sharoitlarda ham insonlar hayotini asrab qolishni o’zining oliy burchi deb bilgan harbiy shifokorlardir.**

Ular jang maydonida ham, tinchlik davrida ham inson hayoti uchun kurashadi. Qiyin sharoitlarda, vaqt bilan bellashib, eng og’ir jarohatlarni ham yengib o’tishga intiladi. Har bir bemor ortida bir taqdir, bir oila, bir umid borligini chuqur his etgan holda xizmat qiladi. Shu bois harbiy shifokor kasbi nafaqat chuqur bilim va mahoratni, balki kuchli iroda, matonat va insonparvarlikni ham talab etadi.

**Bugun ana shunday sharafli va yuksak mas’uliyat talab etadigan kasb egasi – harbiy shifokor, iste’fodagi polkovnik Shavkat Achilov bilan suhbatlashamiz.** Uning xizmati ko’zga ko’rinmas xavflar, jarohat va dard bilan yuzma-yuz kelingan lahzalar hamda mas’uliyatli tibbiy xizmat bilan yo’g’rilgan bir umrlik tajriba maktabidir.

Ushbu suhbatimiz oddiy muloqot emas. Bu, avvalo, inson hayoti uchun kurashgan shifokor qalbini anglash, uning jasorati va fidoyiligini his qilish, oq xalat ortidagi matonatli ruhni kashf etishdir. Harbiy shifokor faqat davolovchi emas, balki u jangovar sharoitda ham askarlar hayotini asrab qolish uchun kurashgan jasur inson.

# FIDOYILIK VA

Shavkat Achilov ana shunday avlod vakilidir. U nafaqat jarohatlarni davolagan, balki umidni saqlab qolgan, og’ir damlarda insonlarga tiriklik ishonchini baxsh etgan. Endi esa u o’sha shiddatli yillarga qaytadi. Ammo bu safar operatsiya xonalari yoki harbiy gospitalar orqali emas, balki xotiralar va hikoyalar orqali.

**– Shavkat aka, ushbu kasbga qachondan mehringiz tusha boshlagan?**

– Ota-onamning xotiralarida saqlanib qolgan bu voqea oddiy bir taqdir qissasi emas, balki urushning og’ir sinovlari orasida unib chiqqan muhabbat va sadoqat namunasidir.

Aytishlaricha, dadam 1939-yili harbiy xizmatga chaqirilib, urushning eng og’ir frontlaridan biriga yuborilgan. Yoshligiga qaramay, u matonat bilan xizmat qilgan, ko’plab mashaqqatli kunlarni boshdan kechirgan. Onam esa tibbiyot texnikumini tugatib, insonlarga shifo ulashish orzusi bilan yashar edi. Urush yillari bu orzu uni frontga boshladi. 1943-yili u ham hamshira sifatida harbiy xizmatga jalb etildi.

Onam front ortidagi harbiy kasalxonada yaradorlarga yordam ko’rsatar, tunni kunga ulab, og’ir ahvoldagi harbiy xizmatchilar hayoti uchun kurashar edi. Bir kuni shunday og’ir yaradorlardan biri kasalxonaga olib kelinadi. Uning ahvoli juda og’ir, hayot bilan o’lim orasida edi. Onam barcha bilim va mahoratini jamlab, uni davolashga kirishadi.

Buni qarangi, taqdirning ajoyib bir burilishi shu yerda namoyon bo’ladi. Onam shifo berishga bel bog’lagan o’sha yarador mening dadam edi. Davolash jarayonida ular o’rtasida avval mehr, so’ng esa chuqur hurmat va iliqlik tuyg’ular paydo bo’ladi. Urushning dahshatlari orasida tug’ilgan bu tuyg’ular kun sayin mustahkamlanib boradi.

Vaqt o’tib, yaralari bitgan dadam yana safga qaytgan bo’lsa-da, ularning qalblarida tug’ilgan muhabbat uzilmadi. Taqdir ularni yana birlashtirdi va oila qurib, tinch hayotda birga yashashni boshlashdi. Shu tariqa urushning qora kunlari orasida paydo bo’lgan bu muhabbat nafaqat ikki insonning, balki butun bir oilaning taqdirini yaratgan.

Ushbu sohaga qiziqish qalbmida juda erta – bolalik yillarimdayoq paydo bo’lgan. Yuqorida aytganimgdek, onam harbiy shifokor bo’lgan. Shu bois bolaligim onamning urush yillarida boshdan kechirgan voqealari, yaradorlarga ko’rsatgan yordami, og’ir sharoitlarda amalga oshirgan murakkab operatsiyalari haqidagi hikoyalari ostida o’tgan.

Men esa o’sha hikoyalarni tinglar ekanman, onamning jasoratiga, sabr-bardoshiga va mehr-shafqatiga havas qilardim. Ayniqsa, inson hayoti uchun kechakunduz kurashgan onlarini tasavvur qilar ekanman, qalbmida shu kabi sharafli va mas’uliyatli kasb egasi bo’lishga kuchli istak uyg’ongan.

Ana shu bolalikda eshitgan hikoyalari, onamning kasbiga muhabbati mening hayot yo’limni belgilab berdi. Vaqt o’tgan sari bu orzu mustahkamlanib, maqsadga aylandi. Shu tariqa men uchun harbiy shifokorlik nafaqat kasb, balki insonlarga naf keltirish, Vatanga xizmat qilish va ota-onam

boshlagan ezgu yo’lni davom ettirishdek muqaddas burchga aylangan.

**– Faoliyatingizni boshlagan vaqtingizda esda qolgan holatlar haqida gapirsangiz, ulardan qanday dars olgansiz?**

– 1970-yilda maktabni tamomlagach, Samarqand tibbiyot institutiga hujjatlarimni topshirib, o’qishga qabul qilinganman. To’rtinchi kursni tugatayotgan paytimizda kursimizga harbiy yo’nalishda o’qishni davom ettirish istagida bo’lganlarga harbiy tibbiyot yo’nalishida o’qish taklifi bilan chiqishgan. Shu ondayoq onamga qo’ng’iroq qilib, vaziyatni tushuntirganman. Onam esa bunday imkoniyatni qo’ldan boy bermasligimni, mendan yaxshi harbiy shifokor chiqishiga ishonch bildirgan. Shu so’zlar menga katta ruhiy tayanch bo’ldi. 1974-yilda Saratovdagi Harbiy tibbiyot fakultetiga o’qishni davom ettirish uchun yo’l oldim. U yerda bilim va ko’nikmalarimni yanada mustahkamlab, ikki yil malaka oshirganimgan so’ng men va safdoshlarim turli harbiy qismlarga xizmatga yuborilganmiz.

Xizmatning dastlabki yillari men uchun haqiqiy sinov maktabi bo’ldi. Ayniqsa, dala sharoitidagi tibbiy xizmat, cheklangan imkoniyatlar o’z ustimda yanada ko’proq ishlashim kerakligini ko’rsatdi. Birinchi bor og’ir jarohat olgan harbiyni qutqarishda ishtirok etganim haligacha yodimda. O’sha paytda nazariy bilimdan ko’ra, sovuqqonlik va mas’uliyat qanchalik muhim ekanini anglaganman.

Xizmatim davomida o’z yo’nalishimni yanada chuqurroq o’zlashtirish maqsadida xirurgiya yo’nalishi bo’yicha internatura bosqichiga hujjat



topshirib, o’qishga qabul qilinganman. Men uchun ta’lim jarayoni qiyin kechmagan, chunki qiziqishim baland va bilmaganlarimni o’rganishdan charchamasdim.

Biroq ayrim kursdoshlarimiz darslarni o’zlashtirishda qiynalishar, ba’zilar esa operatsiyalarda ishtirok etishdan cho’chib, mashg’ulotlarga to’liq qatnashmasdi. Bunday munosabat uzoqqa bormadi – ularning ayrimlari o’qishdan chetlatilgan. Bu holat esa men uchun katta saboq bo’lgan. U menga doim o’z ustimda ishlash, izlanishdan to’xtamaslik va harakatda bo’lish zarurligini anglatib turadi.

Bugun orqaga nazar tashlar ekanman, o’sha davrdagi sinovlar va kuzatgan holatlarim men uchun katta maktab bo’lganini anglayman. Ular menda nafaqat professional, balki inson sifatida ham o’sishimga zamin yaratgan. Eng muhimi, o’z kasbimga bo’lgan muhabbatimni yanada mustahkamlab, oldinga intilishimga kuch bag’ishlagan.

O’sha kuch bilan yo’nalishim bo’yicha ko’p murakkab operatsiyalarni amalga oshirib, yangiliklar kiritganman. Jumladan, birinchi marta peritonitlarga (qorin a’zolarining kuchli yallig’lanishi) laparotomiya qo’yanman va jarayon muvaffaqiyatli o’tgan. Biroq ustozlarimdan dakki eshitganman. Lekin jarayon yaxshi o’tganidan so’ng bu amaliyotni qo’lly boshlaganmiz.

**– Xizmatdagingiz davomida qanday qiyinchiliklarga uchragansiz va ularni qanday yengib o’tgansiz?**



# SADOQAT NAMUNASI



– Urush tufayli biz – harbiylar va shifokorlardan iborat guruh 1979-yilda Afg'oniston hududiga kiritildik. Tojik tilini bilmaganim sababli meni front chizig'idan biroz orqaroqda joylashgan Termiz polkiga yuborishdi. Bu yerda asosiy vazifamiz jang maydonidan olib chiqilgan yaradorlarga shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish, ularni operatsiyaga tayyorlash va zarur hollarda jarrohlik amaliyotlarini o'tkazishdan iborat edi.

Ishning dastlabki kunlarida men uchun bu muhit juda og'ir tuyuldi. Chunki avval bunday darajada og'ir jarohat olgan askarlarni ko'rmaganman. Urush maydonidan keltirilayotgan yaradorlarning ahvoli juda achinarli edi: tanalarda bir necha o'q izlari, portlash oqibatidagi jarohatlar, qon yo'qotish holatlari... Bunday manzaralarni ko'rib, menda ularni operatsiya qilish oldidan biroz cho'chish, ikkilanish hissi paydo bo'lardi. Bu tabiiy edi, chunki har bir jarroh uchun bunday sinovlar oson kechmaydi.

Biroq ana shu og'ir sharoitda safdoshlarimning yuksak mahorati meni hayratga soldi. Ular eng murakkab holatlarda ham vaziyatni tez baholab, aniq qaror qabul qilishar, inson hayoti uchun kurashda bir soniyani ham boy bermasdi. Urushda yaralangan inson tanasida odatda, bitta yoki ikkita o'q emas, balki bir nechta o'q turli yo'nalishlarda kirib, ichki a'zolarga jiddiy zarar yetkazgan bo'ladi. Shunday vaziyatlarda o'qlarni topish, ularning yo'nalishini aniqlash va zararlangan to'qimalarni tiklash katta tajriba va jasorat talab qiladi.

Men ana shu ustozlarimning ish uslubini diqqat bilan kuzatib, ulardan o'rgana boshladim. Asta-sekin o'zimdagi qo'rquvni yengib, mas'uliyatni to'liq his qilgan holda ishga kirishdim. Har bir muvaffaqiyatli operatsiya, har bir saqlab qolingan hayot menga yanada kuch va ishonch bag'ishlardir. Shu tariqa urush sharoitidagi ilk qiyinchiliklar men uchun katta maktabga aylangan.

Bundan tashqari, men Andijon voqealari paytida ham xizmat vazifamni bajarganman. Guruhimiz

bilan shaharga kirib borganimizda bizni Qosimali Ahmedov kutib olgandi. Vaziyat juda tarang, atrofdagi muhit esa har qanday insonni sergak torttiradigan darajada xavotirli edi.

Uchrashuv joyida 50 dan ortiq asirga olingan jangarini ko'rib qoldim. Ularning ko'zlaridagi g'azab va tushunarsiz bir yovuzlikni ifoda etuvchi nigohlar insonni beixtiyor larzaga solardi. Ular oldidan o'tayotgan paytimda qalbimni birzumda qo'rquv hissi qamrab oldi. Rostini aytсам, umrimda birinchi marta shunday kuchli qo'rquvni his qilganman. Bu nafaqat xavf tuyg'usi, balki vaziyatning qay darajada jiddiy ekanini anglatib turgan bir ichki ogohlantirish edi.

Biroq shifokor sifatida mendagi mas'uliyat tuyg'usi bu qo'rquvdan ustun keldi. Bizning asosiy vazifamiz yaralangan harbiylarni tezkor ravishda xavfsiz hududga ko'chirish va ularga to'liq tibbiy yordam ko'rsatish edi. Biz hududdagi kasalxonalaridan og'ir ahvoldagi yaradorlarni saralab, ularni tezda evakuatsiya qilishga kirishdik. Har bir daqiqa, har bir qaror inson hayoti bilan bog'liq edi.

Shu og'ir va xavfli sharoitga qaramasdan, jamoamiz bilan birgalikda barcha yaralanganlarni olib chiqishga va ularning hayotini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldik. Keyinchalik o'ylab qarasam, o'sha paytdagi qo'rquv meni ortga emas, aksincha yanada sergak va mas'uliyatli bo'lishga undagan ekan. Ana shu voqealar mening irodamni tobladi, kasbinga bo'lgan sadoqatimni yanada mustahkamladi.

Ushbu holat menga haqiqiy shifokor eng og'ir va qo'rqinchli vaziyatlarda ham o'z burchidan chekinmasligi, inson hayoti uchun oxirigacha kurashishi kerakligini anglatgan.

## – Suhbatimiz oxirida yosh harbiy shifokorlarga faoliyati davomida asqatadigan tavsiyalaringsizni bersangiz.

– Avvalo, harbiy shifokor bo'lishni tanlagan yoshlarga shuni aytardimki, bu kasb oddiy tibbiyotdan ancha kengroq ma'noni anglatadi. Bu yerda ular nafaqat bemorni davolaydi, balki har qanday sharoitda – tinchlikda ham, favqulodda vaziyatlarda ham, hatto o'q ovozlari quloqni larzaga keltirib turgan vaqtda ham inson hayoti uchun kurashishga tayyor bo'lishi kerak.

Eng muhim tavsiyam – bu yo'lni tanlagan yoshlar o'z ustida doimiy ishlashi kerak. Tibbiyot doim yangilanib boradigan soha, ayniqsa harbiy tibbiyotda tezkor qaror qabul qilish, kam vositalar bilan to'g'ri yo'lni topa bilish juda katta ahamiyatga ega. Shuning uchun nazariy bilimlarni mustahkamlab borish bilan birga amaliy ko'nikmalarni ham doim rivojlantirishi zarur.

Ikkinchidan, ruhiy barqarorlikni shakllantirishlari kerak. Harbiy shifokor ko'pincha eng og'ir jarohatlar, inson azobi, hayot va o'lim orasidagi lahzalarga ko'p duch keladi. Bunday paytlarda his-tuyg'ularni boshqara bilish, sarosimaga tushmasdan to'g'ri qaror qabul qilish juda muhim. Bu esa faqat tajriba va ichki iroda orqali keladi.


Yana bir jihat – jamoa bilan ishlash. Urush yoki favqulodda vaziyatda yakka holda katta natijaga erishib bo'lmaydi. Shifokor, hamshira, sanitar, harbiylar – barchasi bir zanjirning bo'g'inlari. Bir-

birini tushunish, ishonch va hamjihatlik inson hayotini saqlab qolishda hal qiluvchi omil sanaladi.

Shuningdek, insonparvarlikni hech qachon unutmaslik lozim. Oldiga kelgan har bir bemor – u harbiy bo'ladimi yoki oddiy fuqaro – avvalo inson. Uning dardiga befarq bo'lmaslik, unga mehr bilan yondashish shifokorning eng katta fazilatidir.

Va nihoyat, o'z kasbini chin dildan sevish. Chunki aynan shu muhabbat yosh harbiy shifokorlarga eng qiyin damlarda ham kuch beradi, charchoqni yengishga yordam beradi va ulardan haqiqiy mutaxassisni shakllantiradi. Shundagina ular nafaqat yaxshi shifokor, balki Vatanga sadoqat bilan xizmat qiladigan haqiqiy harbiy tabib bo'lib yetishadi.

Suhbatimiz yakuniga yetar ekan, Shavkat aka operatsiya jarayonlarida askar va harbiy xizmatchilarning oshqozonidan olib tashlangan



turli mix, nina va karavotlarning zanjirlarini esdalik sifatida olib qo'yganini ko'rsatdi. O'sha davrlardagi og'ir xizmat sharoitlariga chidolmagan askarlar shu "do'zax"dan chiqib ketish uchun har narsaga tayyor bo'lgani haqidagi hikoyalari bilan bo'lishdi. Afsuski, gazetamizda menga ajratilgan ikki sahifani to'ldirib qo'yganim uchun Shavkat aka aytgan tarixiy hikoyalarni sig'irolmadik.

**P/S:** Suhbatimiz yakunida qahramonimiz nafaqaga chiqqan bo'lsa-da, ancha yillar o'tganiga qaramay, hanuz faoliyatini to'xtatmagani, tetikligi va yoshlarga xos shijoati meni yana bir savol berishga undadi. Nafaqa – dam olish, halovatli hayot kechirish davri deyiladi. Ammo u kishi hali-hamon harbiylarning dardiga malham bo'lib kelayotgani, yuzidagi nur va navqironlik sirini so'raganimda, Shavkat Achilov kulimsirab, shunday javob berdi:

– Inson o'z kasbini chin dildan sevsa, u hech qachon charchamaydi. Men uchun shifokorlik – oddiy ish emas, bu mening hayotim, burchim, vijdonim. Har bir davolagan bemorim, har bir saqlab qolingan hayot menga yangi kuch beradi. Harakatda bo'lish, odamlarga naf keltirish insonni yosh saqlaydi. Agar men biror kun yordam bermasam, o'sha kunim bekor o'tgandek tuyuladi. Shuning uchun ham men hamon to'xtaganim yo'q.

Uning so'zlarida chuqur ma'no, sodda hayot falsafasi mujassam edi. Rostdan ham, insonni yosh saqlaydigan narsa – bu faqat vaqt emas, balki qalbdagi mehr, mehnatga bo'lgan muhabbat va odamlarga foyda keltirish istagi. Shavkat Achilov kabi insonlar bor ekan, jamiyatimizda ezgulik, sadoqat va fidoyilik kabi tushunchalar hech qachon o'z qadrini yo'qotmaydi.

“Vatanparvar” muxbiri  
leytenant Mansurbek JABBOROV  
suhbatlashdi.



Din – bag'rikenglik va insonparvarlik yo'li

# IJTIMOYIY TARMOQLARNING ZARARLI IRMOQLARI

## XATARDAN OGOHO BO'LING!

Bugun axborot xuruji shu qadar ko'paydiki, o'smirlar u yoqda tursin, aql-u hushini yig'ib olgan kishilar ham internetda berilgan xabarlarning qaysi biri to'g'ri, qaysi biri noto'g'ri ekanini ajratishi qiyin bo'lib qoldi.

Shu bois bunday sharoitda har bir ota-ona farzandlariga yo'l-yo'riq ko'rsatishi, ularni muntazam nazoratda tutishi har qachongidan ham muhim va dolzarbdir. Qaniydi, otalar o'g'illari bilan, onalar esa qizlari bilan yaqin do'st, hamfikir va sirdosh bo'lsa. Afsuski, ayrim oila boshliqlari farzandlari tarbiyasini uy bekasi zimmasiga yuklab qo'ya qolishadi. O'zlarini oila tashvishi va katta ishlar bilan banddek ko'rsatishadi. Shu to'g'rimi? Axir o'g'ilga beriladigan tarbiyani ona, qizga beriladigan tarbiyani ota eplay olmaydi.

So'nggi yillarda voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlar va ijtimoiy tarmoqdagi "qarmoqlar" girdobiga tushib qolganlarning aksariyati oilasida ota yoki onaning mehri to'yimagan, ularning tarbiyasidan bebahra yoshlar ekani aniqlanmoqda.

Farzand o'zi muhtoj bo'lgan odob va tarbiyani bobo-buvilari, ota-onalari, aka-ukalaridan ololmasa, boshqa joyning "tuzog'i"ga ilinadi. Ma'naviyatidagi ana shu bo'shliqni to'ldirish ilinjida ko'chaga chiqib "do'stlar" orttiradi. Tabiiyki, hali yaxshilik va yomonlikni, ezgulik va yovuzlikni, oq-u qorani ajrata olmaydigan o'smir yaxshi gapirgan odamning ta'siriga tushadi. Bu esa juda xavflidir.

## VAQT ISROFI

Ijtimoiy tarmoq orqali foydalanuvchi bir marta yozishma yoki rasm almashishni amalga oshirsa ham, bu aloqa bir necha soatlab davom etadi.

Ayrim yoshlar ana shunday oltindan-da qimmat vaqtlarini har xil foydasiz ishlarga sarflashlari isrofdan boshqa narsa emas. Alloh taolo umrni behuda o'tkazishning oqibati haqida ogohlantirgan.

## YOLG'ON GAP VA MISH- MISHLAR O'CHOG'I

Ijtimoiy tarmoq vositalaridan foydalana boshlagan kishi dastlab jiddiy, sekin-asta bo'lar-bo'lmas gap-so'zlar, hech kimga foydasi yo'q ma'lumot va xabarlarni yozishga odatlanib qoladi. Mazkur insonlar

haqidagi asossiz gap-so'zlar bir suhbatdan boshqasiga joylashtiriladi va xabar tekshirilmasdan keyingi muloqotlardagi tanishlariga yuboriladi. Kimningdir beparvoligi sabab tarqatilgan birgina yolg'on xabar natijasida qancha oilalar zarar ko'rishi mumkin.

## FITNA CHIQUARUVCHI XABARLAR

Qolaversa, yoshlar o'rtasida ijtimoiy tarmoqlarda bir-birini haqorat qilish, tuhmat, bo'hton, g'iybat va hattoki jamiyatimizda fitna urug'ini sochayotganlar ham uchrab turibdi. Kimda kimning qasdi bo'lsa, to'g'ridan to'g'ri internet orqali shu qasdini olish uchun "xumori"dan chiqmoqda.

Shuningdek, ijtimoiy tarmoq vositalari orqali yuborilayotgan ma'lumot va xabarlar faqat boshqalarni hayron qoldirishga asoslanadi va uning to'g'ri yoki noto'g'riligini o'ylab ham ko'rmaydi.

Islom dinida fitna chiqarish og'ir gunohlardan bo'lib, hatto odam o'ldirishdan ham katta gunoh sanaladi.

## MASXARALASH MAKONI

Bu virtual olamda mazax va istehzoli gap-so'zlar talaygina. Jismoniy nuqsoni bor odamlarning rasmlari va videolarini qo'yib, turli masxarali izohlar qoldirishadi. Bir-birlariga turli laqablar taqishadi. Dinda birovni masxara qilish,

uning ustidan kulish hamda unga turli laqablar qo'yishdan qattiq qaytariladi.

## NOQULAY HOLATLAR OSHKOR ETILADIGAN "OLAM"

Virtual muloqot vositalarida og'ir yuk tashilayotgan ulovlar yoki hayvonlar suratlarini ko'p uchratish mumkin. Bu yoshlarda hayvonlarga beshafqat muomalada bo'lish kayfiyatini paydo qilmasligiga hech kim kafolat bermaydi.

## AXLOQSIZLIK AVJ OLGAN MASKAN

Turli shahvoniy latifalar, behayo rasmlar va uyatli tasvirga boy videolar yoshlar ongiga salbiy ta'sir qilishi aniq. Buning natijasida ular dinda qattiq qaytarilgan zinodan o'zlarini tiymasliklari mumkin.

## BEGONALASHUV

Ayni paytda bir joyda, bir xonada, bitta yig'ilish-marosimga to'planganlarning aksari bir-birlariga yoki boshqa joydagi odamlarga telefon yozishmalari jo'natish bilan mashg'ul bo'ladi. Aslida bu yig'ilish bir-birlarini uzoq vaqtdan buyon ko'rmaganlar uchun tashkil etilgan bo'ladi.

## O'ZGALAR AYBINI POYLASH

Ko'pincha bu birovlar o'laman desa, birovlar kulaman deydi,

qabilidagi naqlga asosan ish tutishni eslatadi. Inson bilib-bilmay turli xatolarga yo'l qo'yishi mumkin. U o'zi yo'l qo'ygani xatoni bekitishga harakat qilmoqdami, demak, o'sha odamda yaxshilik bor. Birovning aybini berkitgan odam aslida o'z aybini berkitgan bo'ladi. Alloh taolo shu qilgan ishi uchun uning bu dunyo-yu oxiratdagi aybini bekitadi.

## "LAYK"KA O'CHLIK

Ijtimoiy tarmoqlar orqali fikr bildirish va uning ortidan maqtov (layk)larni qo'lga kiritishga urinish bugungi yoshlarni tobora o'z domiga tortib, xususan yoshlar ma'naviyati va xulqiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Buning salbiy tomoni shundaki, foydalanuvchi bunday maqtov (layk)larni yana olishni va tobora ko'paytirishni istaydi, shundan qalbida rohat tuyadi.

Bu rohatlanish oqibatida ular virtual olamga butkul sho'ng'ib, atrofda sodir bo'layotgan voqeahodisalarga befarq bo'lgan holda tashqi dunyodan uziladilar. Ijtimoiy tarmoqlarga bog'lanib qolgan yoshlar boshqalar bilan jonli muloqotda qiynaladi, odamoviga aylanib, do'stlashishda adashadi, birovga hamdardlik bildirish haqida umuman bosh qotirib o'tirmaydi. Faqat ijtimoiy tarmoqda tanishgan "do'st"larining fikri bilan ish ko'radigan bo'lib qoladi.

Shuni unutmaslik kerakki, tarbiyani kechiktirishga hech kimning haqqi yo'q. Yoshlar o'rtasida kitob mutolaasiga ishtiyoqni oshirish zarur. Qo'lida smartfon yoki planshet emas, kitob tutgan bolaning dunyoqarashi keng, tafakkuri yuksak bo'ladi, turli befoyda o'yinlar girdobiga tushmaydi. Zero teran tafakkurli, ma'rifatli va yuksak ma'naviyatli avlodni hech kim yenga olmaydi.

Aziz o'g'il-qizlarim! Hozirgi ilm-fan taraqqiy topgan bir davrda internet saytlari va ijtimoiy tarmoqlar ommalashdi. Ular orqali har bir inson o'zi uchun kerakli ma'lumot va xabarlarni tez fursatda bilib oladi. Lekin ulamolarimiz ijtimoiy tarmoqlarni pichoqqa o'xshatadilarki, uning foydali tarafi bo'lganidek, zararli tarafi ham bor. Siz, yoshlar bunday tarmoqlardan faqatgina oqilona foydalaning. Uning zararli tarafidan ehtiyot bo'ling.

**Shayx Nuriddin XOLIQAQAZAR,**  
O'zbekiston musulmonlari  
idorasi raisi, muftiy



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

Chegara qo'shinlarida



# VATANGA QASAMYOD — *oliy sharaf!*

Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlariga qarashli harbiy qism va bo'linmalarda harbiy xizmatga yangi chaqirilgan muddatli harbiy xizmatchilar ishtirokida tantanali ravishda Vatanga qasamyod tadbirlari tashkil etildi.



Surxondaryo viloyatida o'tkazilgan tadbirda DXX raisining o'rinbosari – Chegara qo'shinlari qo'mondoni ishtirok etib, muqaddas burch tomon o'tlangan yigitlar va ularning ota-onalarini samimiy qutladi. Tadbirda ishtirok etgan faxriylar, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, ota-onalar tomonidan samimiy tilaklar bildirilgach, har bir o'g'lon Vatanga, xalqiga va Prezidentiga sadoqat bilan xizmat qilishga, uning muqaddas sarhadlarini asrab-avaylashga qasamyod qildi.

Tadbir davomida namoyish etilgan jangovar chiqishlar va badiiy ko'rinishlar barchaga birdek manzur bo'ldi.

Bekobod shahrida o'tkazilgan Vatanga qasamyod tadbirida ishtirok etgan mas'ullar tomonidan o'g'lonlarga bir yil juda qisqa fursat bo'lsa-da, uning har bir daqiqasidan unumli foydalanib, bildirilayotgan yuksak ishonchni oqlashlari kerakligi ta'kidlab o'tildi.

Shundan so'ng o'g'lonlar yurtga sadoqatlarini baralla izhor etish barobarida er-yigitlik burchini ham o'z zimmasiga oldi. O'tkazilgan taqdirlash marosimi davomida esa

o'tgan yilning bahorida muddatli harbiy xizmatga chaqirilib, o'z yigitlik burchini sadoqat bilan ado etgan bir guruh askarlarga imtiyozli tavsiyanomalar tantanali tarzda topshirildi.

Quvasoy shahridagi tadbir harbiy orkestr sadolari ostida saf maydoniga davlatimiz bayrog'ining olib kirilishi bilan boshlandi. Unda ishtirok etgan Chegara qo'shinlari mas'ullari va faxriylar jasur o'g'lonlarga sharafli burchni mas'uliyat bilan uddalashlarida ishonch bildirib, xizmatlarida omad tiladi.

O'z jigarbandining yigitlik ontiga guvoh bo'lgan ota-onalarning qalblari esa cheksiz faxr va iftixor tuyg'ulari bilan to'ldi.



natijalarimiz uchun imtiyozli tavsiyanomaga ega bo'ldik.

Ushbu tavsiyanoma orzularimiz sari qo'yilgan ilk qadam hisoblanadi. Shaxsan o'zim kelgusida harbiy xizmatni davom ettirmoqchiman. Ushbu tavsiyanoma esa menga o'zim tanlagan oliy harbiy ta'lim muassasasiga o'qishga kirishimda qanot bo'lib xizmat qiladi. Kelgusida malakali ofitser bo'lib sarhadlarimiz daxlsizligini ta'minlashga o'zimning munosib hissamni qo'shmoqchiman, – deydi oddiy askar Jahongir Yo'ldoshev.

Tadbirning badiiy qismida jasoratli o'g'lonlar o'tgan qisqa vaqt mobaynida otish tayyorgarligi, qo'ljangi usullari va taktik tayyorgarlikdan egallagan bilim va ko'nikmalarini amalda namoyon etib, barchada katta taassurot qoldirish barobarida, yuksak ishonch hissini ham uyg'otdi. Kinologlar tomonidan chegarachilarning doimiy hamrohi bo'lgan xizmat itlari ishtirokidagi chiqishlar ham yig'ilganlarda katta qiziqish uyg'otdi. DXX Chegara qo'shinlari ansambli xonandalari tomonidan ijro etilgan kuy-qo'shiqlar tadbirga yanada ko'tarinkilik bag'ishladi.

Sirdaryo, Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo, Buxoro, Andijon va Namangan viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasidagi harbiy qismlarda ham o'g'lonlar qalbidagi yuksak faxr va iftixor tuyg'ulari ila yurtga sadoqatini baralla izhor etdi. Shu kabi Vatanga qasamyod tadbirlari butun respublikamiz bo'ylab DXX Chegara qo'shinlariga qarashli harbiy qism va bo'linmalarda ko'tarinki kayfiyatda tashkil etildi.

– Bugun biz uchun judayam hayajonli kun, farzandimizning Vatan oldida qasamyod qilishini orziqib kutganmiz. Hozir o'g'limni harbiy libosda ko'rib, juda quvonib, g'ururlanib ketdim. Ayni damda yana bir narsani faxr bilan ayta olamanki, bugun davlatimiz rahbari tomonidan harbiylarga katta imkoniyatlar yaratilib, keng imtiyozlar berilmoqda. Bu borada bizga ham zarur tushunchalar berib o'tildi. Eng muhimi, yurtimiz tinchligi va osoyishtaligi harbiylar qo'lida, bizning farzandlarimiz ham ishonchli qo'llarda, – deydi Gulnora Otajonova.

– Mana, bir yil davomida muddatli harbiy xizmatni o'tadik. Yaxshi tayyorgarlik ko'rib, erishgan

**Mayor Farida BOBOJONOVA**  
DXX Chegara qo'shinlari

Qahramonlar nomi barhayot

# YURAK NIMADAN

# KUYADI?

“Yuragim kuydi” deyishadi. Yurak qachon kuyadi, nimadan kuyadi? Bu savolga hammadan har xil javob olish mumkin. Kimdir yaqinidan ayrilganda yoki boshiga og‘ir kulfat tushganda, yana boshqasi esa sevgidan kuyganda. Aslida hammaning o‘z haqiqati bor. Hamma har o‘tda kuygani rost. Ammo men sizlarga so‘zlab berishni ixtiyor etayotgan hikoyam ularning iztiroblaridan tubdan farq qiladi.

Bu og‘riqni ko‘ksimda bir yildan beri olib yuribman, faqat shu o‘y-xayol bilan yuraman, desam, xato bo‘lar. Ammo o‘zim bilan qolgan kezlarda ko‘nglimning qaysidir burchida “yalt” etib turadi. O‘shandagina yashayotganimni, jamiyatga, odamlarga befarq emasligimni anglayman. Uzun uyqusiz tun ortidan o‘sha og‘riqni qalamga olish haqida o‘ylayman. Har bir narsa pishib yetilgani kabi inson ko‘ksidagi dard ham yetilmaguncha uni qog‘ozga tushirish xatodir. Erta uzilgan meva kabi – na ta‘mi bor, na tuzukroq ifor taratadi deysiz. Xullas, mening og‘riqlarim yetilishi bugunga to‘g‘ri kelgan ekan.

Bahor shamoli ko‘ksimizga urilib turibdi. Qishning zahrini olayotgan quyosh tabiatga hayot bag‘ishlayotgandek go‘yo. Shunday dorulamon kunlarning birida Toshkentdan Sirdaryo va Samarqand tomon yo‘l oldik. Hamrohlarim bilan Vatan tinchligi yo‘lida jon bergan askar yigitlarni yod etdik. Aniqroq aytganda, ular yod etishdi, men duolariga sherik bo‘ldim.

**Bir hamrohim Elomon Otajonovning mardligi haqida yonib gapirdi, so‘nggi nafasi qolguncha Vatanga sidqidildan xizmat qilgani, ko‘ksini teshib o‘tgan o‘qning og‘rig‘iga qaramay, dushmanning qarshisida mardona turgani, yana biri esa Sayyor Sadinov haqida so‘z qotdi.** Hech nimadan qo‘rqmaydigan chinakam er yigit ekani, Vatanini jonidan ham ustun qo‘yishi haqida suhbat bo‘ldi. Men esa ularga jimgina termilib, so‘zlarini diqqat bilan tinglayman. Qahramon yigitlar haqidagi suhbatlardan nimalarnidir qoralashni o‘ylayman.

O‘sha mash‘um kunlarni xayolimga keltiraman, ko‘z oldimda jang maydoni, dimoqqa urilayotgan porox hidi, avtomatlardan otilayotgan o‘q ovozi va Vatan uchun kurashayotgan er yigitlar gavdalanadi. Yuqorida ta‘kidlaganim, Elomonning ko‘ksini teshib o‘tgan o‘q haqida o‘ylayman. Mardning ko‘ksini teshib o‘tgan o‘q haqida. Eng og‘ir azob o‘sha o‘qnikidir, dushman qo‘lida turgan xanjar ham, qurol ham o‘z vazifasidan norozi o‘tsa kerak, deymen ichimda. **Bir qahramon yigit mardlarcha halok bo‘lishi uchun, bir nomardning qo‘lidagi qurol chekkan faryod haqida o‘ylayman.** She‘rga solgim keladi bu jarayonni, xayolimni hamrohlarimning chaqirig‘i bo‘ladi. “Yigit, yetib keldik!”

Yon-atrofi tog‘lar bilan o‘ralgan qishloq odamlari yelkasiga ketmon osgancha, daladan qaytyapti. Shom namoziga chaqirilayotgan azon ovozi olisdan elas-elas eshitilib turibdi. Bu yerga yetib kelishdan ilgariroq kirgan xonadonlarimiz ko‘z oldimga keladi. Ularning sog‘inchi, iztiroblari, ko‘zlarimga



botib qolgandi. **Ularga va menga dalda berib turgan yagona narsa – bu yigitlar chinakam qahramon, ular Vatan uchun jon bergan, Vatanga aylangan edi.** Xayollarni bir yerga yig‘ib, katta leytenant Ismatillo Xo‘jayev xonadoniga tashrif buyurdik.

Bizni Ismatillo Xo‘jayevning yangisi kutib oldi, uyning bir xonasi marhum qahramon xotirasiga bag‘ishlangan edi. Xonada bolalik suratlari, o‘smirlik paytlari va harbiy xizmatdagi rasmlar, kiyimlari hammasi bus-butun xotira, tarix bo‘lib, ko‘z oldimda gavdalanib turardi.

Ismatillo Xo‘jayev 1972-yil 20-noyabrda Samarqand viloyatining Nurobod tumani Oqsoy qishlog‘ida tug‘ilgan. Tumandagi 13-umumta‘lim maktabida o‘qigan. Maktabni bitirgach, Samarqand oliy harbiy avtomobil qo‘mondonlik-muhandislik bilim yurtiga o‘qishga kirib, uni 1997-yilda



bitirgan va ofitser sifatida Mudofaa vazirligi qo‘shinlarida xizmat qila boshlagan. 2000-yilning avgust-sentabr oylarida Surxondaryo viloyatining Uzun va Sariosiyo tumanlarida xalqaro terrorchi to‘dalarga qarshi olib borilgan jangovar harakatlarda Ismatillo Xo‘jayev faol ishtirok etgan. Maxsus guruh tarkibida navbatdagi desant ishg‘ol harakatlarini bajarayotgan vaqtda mardlarcha halok bo‘lgan.

**Katta leytenant Xo‘jayev yoshligidan bilimli, zukko, o‘z iqtidori va tirishqoqligi bilan tengdoshlaridan ajralib turardi.** Uning harbiy xizmatga qiziqishi bolalik kezlardan yaqqol sezilgan. Xo‘jayevning otasi Nurillo Xo‘jayev Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi edi. Otasidan eshitgan qahramonliklar, harbiy xizmat haqidagi suhbatlar sabab bo‘ldimi, Ismatillo ham harbiy bo‘lib, Vatan himoyasida turishga bel bog‘ladi.

– Harbiy xizmat davomida ham bir necha bor komandirlar tomonidan e‘tirof etildi. Do‘stlarga sadoqati va mehri Vatan himoyasidek buyuk yukni yelkasiga ortgan Ismatillo hayotini shu yo‘lga bag‘ishladi. O‘zi sevgan ayoli bilan oila qurib, hayotini juda go‘zal boshlagan edi. **Ammo Vatan himoyasini oilasidan ham ustun qo‘ygan qaynim o‘n besh kunlik kelinini uyda qoldirib, Vatan himoyasiga otlandi va shu ketishda qaytib kelmadi,** deb ko‘ziga yosh oldi Xo‘jayevning yangisi.

Bundan avvalroq tashrifida bo‘lgan xonadonlarimizda ham yuragim ezildi, ko‘nglim xomush tortgandi. Negadir bu uyga kelib, beixtiyor ko‘zlarim yoshlandi. Yig‘ladim. Vatan himoyasi yo‘lida 15 kunlik rafiqasini uyda qoldirganicha, qaytmagan yigit dardidan yig‘ladim. **Olis qishloq bag‘rida ulg‘ayib, bus-butun Vatan himoyasida mardona jon bergan qahramon ohidan yuragim kuydi.** Mana, yurak nimadan kuyadi, mana, yurak chinakam og‘riqni qachon his etadi?! Boshqa bir yurakning zarblari to‘xtaganida yurak kuyar ekan. **Yurak kuyishi – bu faqat o‘z darding emas. Bu boshqalarning armoni, ko‘zyoshi, sog‘inchi yuragingdan joy olganida paydo bo‘ladigan og‘riq.** Bu og‘riqdan qochib bo‘lmaydi, u seni inson qiladi, ulg‘aytiradi.

Muhammadali G‘AFFOROV,  
“Vatanparvar”

Ajdodlar jasorati – yoshlarga ibrat

# O'ZBEK UCHUVCHILARINING QAHRAMONLIGI



**Ikkinchi jahon urushi davrida harbiy aviatsiya muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, fashistlar tomonidan 1941-yilning 22-iyun tongida sobiq Ittifoq chegaralarining buzib kirilishida, chegara oldi hududlarning yakson etilishida harbiy aviatsiyaning o'ri katta bo'ldi.**

Soha mutaxassislari va tadqiqotchilarning olib borgan izlanishlari shuni ko'rsatadiki, urush boshlangan davrda fashistlar harbiy aviatsiyasi kuchli darajada takomillashgan bo'lib, yuqori tezlikda uchuvchi va eng ilg'or qurol-yarog'lar bilan ta'minlangan Messerschmitt-109, 110, (ME-109, ME-110), Yunkers, Xeynkel va Fokke-Vulf kabi o'nlab turdagi zamonaviy samolyotlarga ega edi. Bu samolyotlarni boshqarish harbiy uchuvchilardan katta mahorat va malakani talab etgan, shu tufayli ham fashistlar armiyasi aviatsiyasi yaxshi tayyorlangan va jangovar parvozlarni mukammal tarzda amalga oshiradigan yetuk malakaga ega harbiy uchuvchilar bilan ta'minlangan edi.

Bundan tashqari, fashistlar tomonidan bosib olingan va ularning satelit davlatlariga aylangan Yevropaning boshqa ko'plab davlatlari sanoati, iqtisodiyoti va harbiy salohiyati fashistlarning kuch-qudratini yuksaltiruvchi manbalarga aylantirilgan. Ushbu davlatlar uni nafaqat iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlagan, balki katta miqdordagi inson oqimi bilan ham ta'minlagan. Natijada ushbu davlatlar fuqarolaridan tashkil topgan harbiy tuzilmalar frontning barcha yo'nalishlari bo'yicha sobiq Sovet Ittifoqiga qarshi janglarga olib kirilgan. Bu jangovar harakatlarda 1941-yilning 22-iyunidan boshlab Ruminiya, 25-iyundan Finlyandiya, 27-iyundan Vengriya davlatlari Harbiy havo kuchlari tarkibida ishtirok etgan bo'lsa, Italiya davlati esa o'zining 83 ta jangovar samolyoti bilan iyul oyi o'rtalaridan fashistlar aviatsiyasi bilan birgalikda sobiq Sovet Ittifoqi hududidagi havo janglarida qatnasha boshlagan.

Urushdan oldin butun sobiq Ittifoq bo'yicha mudofaaga ko'maklashuvchi tashkilotlar qoshidagi aeroklublar faoliyati keng tarqalgan edi. 1936-yilda 122 ta aeroklub mavjud bo'lgan bo'lsa, 1940-yilga kelib, ular soni deyarli ikki barobarga ko'paydi va 205 tani tashkil etdi. Ko'plab yoshlar ana shu aeroklublarda o'zlarining boshlang'ich bilimlarini olishgan. Agar 1936-yilda 176 nafar aeroklub bitiruvchisi oliy harbiy aviatsiya bilim yurtlari kursantlari safidan joy olgan bo'lsa, 1938-yilga kelib, ular soni 14 106 tani tashkil etgan.

Umumiy hisobda, sobiq Ittifoq Harbiy havo kuchlari 1938-yilga kelib, zaxiradagi uchuvchi kadrlar sonini 106 238 taga, injener-texniklar sonini esa 47 501 nafarga yetkazishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan edi. Shu bilan birga, aviatsiya mutaxassislarini tayyorlash ham keng yo'lga qo'yildi, masalan, 1936-yildan 1940-yilgacha bo'lgan davrda 24 122 nafar harbiy uchuvchi tayyorlangan, bu ko'rsatkich 1936-yilda 2 714 tani tashkil etgan bo'lsa, 1940-yilda esa 9 613 taga yetdi. Aviatsiya sohasida yetakchi nufuzga ega bo'lgan shturmanlar tayyorlashda esa bu raqamlar 13 361 taga, aviatsiya texniklari 30 637 taga ortgan.

Ana shunday kursantlar orasida Hamid Sarimsoqov, Abdusamat Toymetov, Adham G'ozinazarov, Sattor Salomov, Yuriy Bogolyubov, Abdusamat Tuyaqov, Muhammadjon Shokirjonov kabi ko'plab yurtdoshlarimiz Ikkinchi jahon urushi frontlarida mardlik va jasorat namunalari ko'rsatgan.

Urush boshlangan dastlabki paytda Germaniya armiyasining aviatsiyasi son jihatdan sobiq Ittifoq aviatsiyasiga nisbatan besh baravar ustunlikka ega bo'lgan. Shuning uchun ham urushning dastlabki oylarida sobiq Sovet Ittifoqi aviatsiyasida juda katta yo'qotishlar kuzatilgan, harbiy uchuvchilarga bo'lgan talab keskin ortgan.

Aviatsiya sohasidagi texnik xizmatchilar yoki xizmat faoliyati bevosita uchuvchilik bilan bog'liq bo'lmagan boshqa aviatsiya sohasi mutaxassislari ham harbiy uchuvchilikka yo'naltirilgan. Misol tariqasida, Ikkinchi jahon urushida ko'rsatgan mardligi va jasorati uchun "Qahramon" unvoniga sazovor bo'lgan harbiy uchuvchi Abdusattor Eshonqulovning jangovar yo'lini keltirib o'tish joiz.

1916-yilda Toshkent shahrida tug'ilgan Abdusattor Eshonqulov 1937-yilda qizil armiya safiga chaqirildi va Volsk shahrida joylashgan harbiy-texnik aviatsiya bilim yurtiga o'qishga yuborildi. 1939-yilda ushbu bilim yurtini muvaffaqiyatli tamomlagan yosh ofitser xizmat faoliyatini Lipetsk shahridagi oliy aviatsiya malaka oshirish kurslarida boshlagan.

Havoga ko'tarilgan samolyotning har bir muvaffaqiyatli parvozi unga ko'rsatilgan sifatli texnik xizmat bilan bevosita bog'liq bo'lib, bu aviatsiya texnik xizmatchilaridan bilim va ko'nikmalari yuqori darajada bo'lishini talab etgan. Shu sababli Abdusattor Eshonqulovning zimmasiga nihoyatda qiyin, lekin mas'uliyatli vazifa yuklatilgan edi. Uning bilimi, mahorati va ko'nikmalari ko'plab yosh aviatsiyachilarning o'z kasbini chuqur o'rganishlarida muhim o'rin tutgan.

Voronej shahridagi qiruvchi aviatsiya polkida texnik-leytenant unvonida samolyot mexanigi bo'lib, harbiy sohada xizmatini davom ettirayotgan o'g'lon ana shunday og'ir sharoitda uchuvchilik kasbiga yo'naltirildi va u 1942-yilda Voronej shahridagi uchuvchilarni dastlabki tayyorlash bo'yicha 6-aviatsiya maktabini tugatdi.

Ma'lumki, butun urush davomida 1942-yil – eng og'ir, sinovli va mashaqqatli yil bo'lgan. Ana shunday qiyinchiliklarga qaramasdan, mamlakat ichkarisiga evakuatsiya qilingan sanoat korxonalarini, shu jumladan aviatsiya sanoati ham bir maromda ishlay boshlagan. Ishlab chiqarilishi yo'lga qo'yilgan IL-2 samolyotlari o'z davrining eng ilg'or samolyotlaridan biri bo'lib, ularda endi reaktiv snaryad qurilmalari o'rnatilgan boshlangan. Bu darajadagi yuqori texnik ko'rsatkichlarga ega samolyotlarni boshqarish uchuvchilardan oliy darajadagi mahoratni talab etardi.

Abdusattor Eshonqulovdagi bilim, ko'nikma va salohiyat uni ana shunday samolyotlarni ham boshqara olishiga zamin bo'ldi. U 1943-yilda Balashov shahridagi Uchuvchilar harbiy aviatsiya bilim yurtini o'qib tugatdi va 28 nafar bitiruvchi uchuvchi bilan birgalikda III darajali Suvorov ordenli 62-Grodno hujumkor aviatsiya polkida zveno komandiri bo'lib jangovar xizmatini davom ettirdi. 2-Belarus fronti 4-havo kuchlari armiyasining 233-hujumkor aviatsiya diviziyasi tarkibidagi ushbu polk dushman qo'shinlariga, uning texnikasi va ta'minotiga katta zarar yetkazgan.

Shularni inobatga olgan holda 1944-yil 7-iyul sanasida 233-hujumkor aviatsiya polki komandirining buyrug'i asosida, uchuvchi leytenant Abdusattor Eshonqulov fashist bosqinchilariga qarshi olib borilgan janglarda jangovar topshiriqlarni namunali tarzda bajarishda ko'rsatgan jasorati va 12 marta amalga oshirgan muvaffaqiyatli parvozi uchun "Qizil Yulduz" ordeni bilan taqdirlangan.

Shuningdek, 2-Belarus fronti 4-havo armiyasi ko'mondonligining 1944-yil 20-sentabrdagi buyrug'iga binoan, 27 ta muvaffaqiyatli parvozi uchun "Qizil Bayroq" ordeni bilan taqdirlangan.

Qo'mondonlikning 1944-yil 14-dekabrda shaxsiy tarkibni taqdirlash bo'yicha buyrug'iga binoan, 34 marotaba amalga oshirgan muvaffaqiyatli jangovar parvozi

uchun III darajali Suvorov ordenli 233-hujumkor Grodno aviatsiya polki uchuvchisi katta leytenant Abdusattor Eshonqulov II darajali "Vatan urushi" ordeni bilan taqdirlangan.

Bulardan tashqari, katta leytenant Eshonqulov yana 27 ta jangovar parvozini chekinayotgan dushman qo'shinlarining old qatorlarda joylashgan texnikasi, tanklari, qurol-yarog' va shaxsiy tarkibiga katta talafot yetkazgan holda eskadriya yetakchisi sifatida amalga oshirdi. Bu jangovar parvozlarda u o'zining mardligi, jasurligi va topqirligi bilan shaxsiy namuna ko'rsatgan.

O'zining butun jangovar faoliyati davomida katta leytenant Eshonqulov qo'l ostidagi havo hujumkor aviatsiyasi uchuvchilari birorta ham samolyotni yo'qotmasdan, jiddiy talafotlarsiz jang olib borgan.

1945-yilning 8-may kuni ham Berlin osmonidagi havo janglarida ishtirok etib, aerodromga kech qaytib kelgan Abdusattor Eshonqulov birmuncha muddat o'tgach, avtomatdan otilayotgan o'q tovushlarini eshitib, tashqariga yugurib chiqqan payti g'alaba to'g'risidagi xushxabarni eshitganida, o'zining janglarda ko'rsatgan jasorati, mardligi va Berlinni olish uchun bo'lgan janglardagi mardonavor ishtiroki uchun kelgusida "Sovet Ittifoqi Qahramoni" unvoniga sazovor bo'lishidan mutlaqo bexabar edi...

Abdusattor Eshonqulovni "Qahramon" unvoniga tavsiya etgan 4-havo armiyasi qo'mondonligi tomonidan 1945-yilning 23-may sanasidagi taqdirlash varaqasida quyidagi ma'lumotlar keltirilgan: "Katta leytenant A. Eshonqulov 62-hujumkor aviatsiya polkining jangovar harakatlarda 1944-yilning fevral oyidan boshlab ishtirok etib kelmoqda. Ana shu muddat ichida 100 dan ortiq jangovar parvozni amalga oshirdi.

Bu parvozlarda mobaynida zveno komandiri katta leytenant Eshonqulov dushmanning 10 ta tankini, 69 ta avtomashina, 2 ta paravoz, 43 ta qurol-aslaha ortilgan tirkamasi, daryolarda joylashgan kechuv joylar, texnika va tanklar jamlangan joylarini hamda besh yuzdan ortiq askar va ofitserni tor-mor etdi".

O'zbekning mard va jasur o'g'loni, ilk o'zbek harbiy uchuvchilardan biri katta leytenant Abdusattor Eshonqulov 1945-yilning 18-avgust kuni Oliy Sovet Prezidiumining qaroriga binoan, "Sovet Ittifoqi Qahramoni" unvoni bilan taqdirlandi. Qahramonga Lenin ordeni va "Oltin yulduz" medali ham tantanali ravishda topshirildi.

Xulosa o'rinda shuni ta'kidlash joizki, jangovar faoliyatini Ikkinchi jahon urushini Berlinni zabt etish bilan yakunlagan, O'zbekiston xalqining jasorati, mardona mehnati, metin irodasi va insoniyligi bilan bashariyatni fashizm balosidan saqlab qolib, dunyoda tinchlik o'rnatilishiga hissa qo'shgan yurtdoshlarimizning qahramonliklari tarix zarvaraqalariga muhrlab qo'yildi va ularning muqaddas xotiralariga hurmat bilan munosabatda bo'lishimiz zarur.

**Shukurullo RAYIMOV,**  
Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining Quruqlikdagi qo'shinlar instituti professori, pedagogika fanlari nomzodi



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

# QAMAYNING

## Jumbil baxshisi



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

**O'zbek folklorshunosligi tarixidan ma'lumki, Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod, G'uzor, Shahrisabz, Qamashi tumanlarida xalq og'zaki ijodining asosiy yo'nalishi bo'lgan baxshichilik san'atining yirik maktablari shakllangan va faoliyat ko'rsatgan.**

Baxshilar doston va termalarini do'mbira jo'rligida ijro etgan. Ushbu yirik maktablarning ba'zilari tugab ketgan, ba'zilari esa hozirda ham faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Bu maktablarning repertuarlari, ijro usullari, tamoyillari va boshqa jihatlari bir-biridan ajralib turgan va hozirda ham farq qiladi.

Qamashi tumanining Qamay qishlog'ida XVIII–XIX asrlarda dostonchilik maktabi vujudga kelgan bo'lib, to hozirgi kungacha uning an'analari davom etib kelmoqda. Ushbu dostonchilik maktabi Dehqonobod va G'uzor tumanlari va unga yondosh hududlarda yashab, baxshichilik yo'nalishida ijod qilgan shirinnavas baxshilar hisobiga rivojlanib kelgan. Qamay

baxshilari ham do'mbira jo'rligida doston va termalar aytgan. Ular doston aytish mahoratida tengsiz bo'lgan.

Qamay dostonchilik maktabi vakillarining boshqa dostonchilik maktablaridan farqli tomoni shundaki, bu baxshilar xalq dostonlarining lirik yo'nalishiga alohida e'tibor qaratgan. Ular poetik shakllar taraqqiyotida boshqa dostonchilik maktabi vakillariga nisbatan ancha ilgari ketgan. Qamay dostonchilik maktabining boshqa maktablardan ijro uslubiga ko'ra farqi shundaki, ular doston syujetidagi ayrim detallarni o'zgartirib aytish orqali kuylagan. Bu uslub doston eshituvchilari bo'lgan xalqning dostoniga, doston qahramonlariga nisbatan mehrini oshirgan va ular dostonlarni qayta-qayta eshitsalar ham yangilik sifatida qabul qilganlar.

Qamay dostonchilik maktabi to'g'risida filologiya fanlari doktori Malik Murodovning "Baxshilar Vatani" deb nomlangan maqolasi markaziy nashrlarda chop qilingan. Ushbu maqolada "Qamashidan taxminan o'n besh-yigirma chaqirim g'arbda joylashgan Qamay qishlog'i ilgarilari o'n ikki qishloqdan tashkil topgan bo'lib, unda qariyb ming xonadon yashardi. Qishloq aholisi asosan bugajili urug'idan. Ko'pni ko'rib, ko'pni bilgan qariyalarning naql qilishlaricha, bundan uch yuz-to'rt yuz yillar ilgari Qamayning g'arbiy chekkasida "Qambar tepa" deb atalgan bir joy bo'lgan. Ota-bobolari Boysun va Sherobod tomonlardan ko'chib kelib, shu joyda chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullanib o'troqlashgan. Bugajili urug'iga mansub kishilar chorvachilik, dehqonchilik, chavandozlik, poyandozlik, dostonchilik bilan dong taratgan. Rivoyat qilishlaricha, Qamayda 64 nafar baxshi yashab, ijod va ijroda do'ruq qozongan" deb yoziladi.

Otam 1934-yilda tug'ilgan Xolmurod Hoji bobo Rustamov baxshichilik san'atiga azbaroyi qiziqqanidan baxshilarga tegishli bo'lgan maqola va boshqa manbalarni o'zining shaxsiy arxivida yig'ib yurar edi. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan maqolani men dastlab otamning shaxsiy arxivida saqlangan jurnalda o'qiganman.

Qamay baxshichilik maktabi tarixida erkak baxshilar bilan bir qatorda Jumbil baxshi degan ayol baxshi ham bo'lgan. Mahalliy aholining e'tirof etishicha, uni o'z davrida Uchqosh baxshi ham deb ataganlar, chunki Jumbil baxshining ikki qoshi o'rtasida bir tomoni tepaga qaragan uchinchi qoshi bo'lgan ekan. Shuning uchun mahalliy xalq uning ijodini yaxshi ko'rganidan unga Uchqosh baxshi deb laqab qo'ygan. Jumbil baxshi XIX asr oxiri, XX asr boshlarida Qamayda yashab ijod qilgan va do'mbira jo'rligida el-yurt orasida doston va termalar qo'ygan.

Jumbil baxshi mening otamga ona tomonidan qarindosh bo'lgan. Otam kasbi bo'yicha shifokor edi, lekin uyimizda otamning bir do'mbirasi bo'lar edi. Men shu do'mbiraning yoshligimdan to yaqin yillargacha uyimizda saqlanganini bilaman. Otam do'mbira chalishning nag'ma va usullarini bilmasa-da, uni tez-tez qo'lga olib, benag'ma va beusul "ding-ding" qilib chalib qo'yardi. Har do'mbira chalganida "Mening ona avlodimda Jumbil baxshi o'tgan", deb aytishdan charchamas edi. Otamning do'mbira chalgani va yuqorida aytgan so'zlariga oila a'zolarimizning hammasi guvoh bo'lgan. Men hozirda bu do'mbiraning uyimizga qanday kelib qolganini yoki kim tomonidan berilganini otamdan so'ramaganimdan afsus qilaman.

Otamning onasi 1905-yilda tug'ilgan Bobonova Iqbol ismli ayol bo'lgan. Iqbol momomning onasi Oygul ismli ayol bo'lgan. Oygul momoning singlisi Jumbil baxshi bo'lgan yoki Jumbil baxshi otamning onasiga tus xola bo'lgan.

Oygul momoning Omonqul degan akasi bo'lgan. Omonqul bobo Turkmaniston Respublikasi Chorjo'y viloyatining Gaurdak (*Gavurdak*) shahrida yashagan. Omonqul bobo asli qamaylik bo'lgan. Chorvachilik bilan shug'ullanib, Gaurdak tomonlarga bahor vaqtida suruv-suruv qo'y haydab ketgan va qishga yaqin qaytib kelishgan. Avvaliga mollari bilan Qamayga qaytib kelgan, lekin keyinchalik qishda ham qaytib kelmasdan Gaurdakda o'troqlashib, qolib ketgan.

Omonqul boboning farzandi ko'p bo'lgan, lekin ulardan Musurmonqul va Xolmo'min (*laqabi Jampar*) ismli o'g'illari Gaurdakdan biznikiga ahli ayollari, farzandlari bilan bir yilda bir-ikki marta kelib turar edi. Musurmonqul va Xolmo'min tog'alar Turkmanistondan Qamayga kelganida birinchi bo'lib to'g'ri bizning uyimizga kelar edi. Otam u kishilarga tog'a deb murojaat qilar edi. Musurmonqul tog'a bilan men ham juda ko'p marta suhbatda bo'lganman. Tog'aning eskicha tabiblik kasbi ham bor edi.

Musurmonqul tog'a biznikiga har gal kelganida otamning do'mbirasini olib, dostonlardan parchalar va termalar aytib berar edi. Lekin Musurmonqul va Xolmo'min tog'alar bugun bandalikni bajo keltirgan. Farzandlari bugungi kunda ham Gaurdak shahrida yashaydi.

Keyinchalik bilsam, otamga do'mbirani aynan Jumbil baxshining jiyani Musurmonqul tog'a sovg'a qilgan ekan. Otam umrining so'nggi yillarida avlodlarimiz shajarasini yozib qoldirgan. Ana shu shajarada yuqorida ta'kidlab o'tilgan avlodlar davomiyligi yozib qoldirilgan.

Otamning singlisi, (*ota boshqa, ona bir*) hozirda Qamashi tumani Mirzadala qishlog'ida yashovchi 1936-yilda tug'ilgan, 89 yoshli, ona tomonidan Jumbil baxshiga qarindosh bo'lgan Ziyoratova Qunduz ammam Jumbil baxshi to'g'risida o'z onasi Bobonova Iqbol momodan eshitganlarini quyidagicha xotirlaydi: "Jumbil baxshi menga ona tomonidan xolam bo'lgan va u o'zimizning Qamayda yashagan ekan. Jumbil baxshi bir necha farzandlar ko'rgan, lekin ularning hammasi yoshligida vafot etib ketgan. Farzandi turmagani sababli u butun umrini baxshichilikka bag'ishlagan. Mening farzandlarim turmadi, Qamay ahli meni hech bo'lmasa, aytgan dostonlarim bilan eslab yurishar, der ekan Jumbil baxshi.

Jumbil baxshi yashagan davrda televizor yoki radio bo'lmagan. Shuning uchun odamlar xalq og'zaki ijodi bo'lgan doston va termalar eshitib, ma'naviy chanqog'ini qondirgan. Doston va termalar aytish esa mahalliy xalq orasidan yetishib chiqqan baxshilar tomonidan aytilgan va avlodlardan avlodga o'tib kelgan.

U vaqtlarda qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish uchun texnika bo'lmagani sababli ishga yaroqli aholi kunduzi dalalarda ketmon chopib, g'alla va boshqa

mahsulotlarni yetishtirgan va ertadan kechgacha mehnat qilgan. Ishdan charchab kelgan aholi kechki payt doston va termalar eshitish uchun bir manzilga to'plangan.

Jumbil baxshi kun botish oldidan to'plangan odamlarga do'mbira jo'rligida "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Nurali", "Avazxon" va boshqa doston va termalardan doston aytishni boshlagan. Doston aytish to tonggacha davom etgan. Tonggacha odamlar ham joyidan qimirlamay, doston va termalarni tinglagan. Ertalabgacha doston aytilgan bo'lsa-da, oxirigacha tugamagan va odamlar o'rnidan turib, yana ishga otlangan.

Ertasi kuni kechqurun ishdan keyin odamlar yana yig'ilgan. Jumbil baxshi dostonni kechagi to'xtab qolgan joyidan yana davom ettirgan. Xalq og'zaki ijodini juda yuqori saviyada mahorat bilan ijro qilgani uchun xalq orasida Jumbil baxshi katta obro'-e'tiborga sazovor bo'lgan.

Jumbil baxshi qo'ng'iro't urug'iga mansub bo'lgani sababli boshqa dostonlarga hurmat saqlagan holda, ayniqsa qo'ng'iro't urug'ining dostoni bo'lgan "Alpomish" dostonini alohida shavq bilan kuylagan. Ayniqsa, doston qahramonlaridan biri Barchinoyning hijronli, ayriliq azoblarini va tushkun holatdagi hayotiy kechinmalarini, o'zining dardi deb qabul qilgan va dostonlarni eshitishga chanqoq bo'lgan Qamay elining odamlari esa uni o'zgacha ishtiyoq bilan tinglagan ekan.

Qunduz ammam bilan suhbat o'tkazganimdan so'ng o'zimizning shaxsiy kutubxonamda saqlanayotgan "Alpomish" dostonini olib, yana bir bor o'qib chiqdim va dostonidan quyidagi satrlarni qog'ozga tushirdim.

*Ayriliq o'tiga bag'rimni dog'lab,  
Borolmayman men to'ramni so'rog'lab,  
Firoqida qoldim bunda qon yig'lab.  
O'ldi, deb ovoza bunda kelgandir,  
Otamni izlab, Kasha elga borgandir,  
Anig'in bilmadim ketgan sultondir.  
Odamlar gapirib elda yurgandir,  
Malomat gap elda ovoza bo'lgandir,  
Avbaholam mening to'ram o'lgandir,  
El-u xalqqa shuytib gap bo'p yurgandir,  
Bilmayman, ahvoli qanday bo'lgandir,  
Men yig'layman, to'ram deyman  
ung'oyib...*

Alpomishning o'ldi degan ovozasini eshitgan Barchinoy, anig'ini bilolmay, yig'lab turib, yuqoridagi so'zlarni aytib turgan joyini Jumbil baxshi ham ko'zda yosh bilan kuylagan joylari shu satrlar bo'lsa kerak, degan fikr xayolimga keldi.

Men mana shu maqolani yozish jarayonida Qamayning Mirzadala qishlog'ida yashovchi, 1941-yilda tug'ilgan, 84 yoshli Nurmatov Suyun Hoji bobo bilan ham suhbatlashdim. Hoji bobo ham o'z ota-onasidan eshitganlarini quyidagicha xotirlaydi: "Jumbil baxshi haqiqatda bizlarga ham qarindosh bo'lgan va Qamay elining hozirgi Mirzadala qishlog'ida yashagan, xalq orasida xalq og'zaki ijodi namunalarini bo'lgan doston va termalar aytgan.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishishidan biroz oldin qarindoshlar bilan bir avtobus bo'lib, Turkmaniston Respublikasi Chorjo'y viloyati Gaurdak shahrida yashovchi qarindoshimiz bo'lgan, Jumbil baxshining Omonqul degan akasining

o'g'li Musurmonqul bo'lanikiga mehmonga bordik. Uch kun Gaurdakda mehmon bo'ldik. Safarda bo'lgan vaqtimizda Jumbil baxshi to'g'risida, bizning avlodimizda ham chechan baxshi ayol o'tgani, baxshining xalq og'zaki ijodini jo'shib kuylagani to'g'risida uzoqdan uzoq suhbatlar qildik. Mehmonda bo'lganimizda Musurmonqul bo'la biz mehmonlarga qo'lidan kelganicha dostonlardan parchalar va termalar aytib berdi".

Shaxsan men o'zim Turkmanistonga ketayotgan kishilar bizning hovliga to'planganini, ular orasida mening otam Xolmurod Hoji bobo Rustamov, onam Bibish Hoji ona Jo'jamurod qizining va boshqa qarindoshlarning bo'lganini va ular bizning uydin bir avtobus bo'lib jo'nab ketganining guvohiman.

Qamayning Mirzadala qishlog'ida yashovchi, 1946-yilda tug'ilgan, 79 yoshli Ochilova Gulsun momo Jumbil baxshi to'g'risida onasi Tursun momodan eshitganlarini quyidagicha xotirlaydi: "Jumbil baxshi Qamayning Mirzadala qishlog'ida yashagan va Xonboylar qavmidan bo'lgan Oygul ismli ayolning singlisi bo'lgan. U el-u xalq oldida do'mbira jo'rligida doston aytgan.

Ayniqsa, Qamay elida yilning bahor va yoz oylarida Navro'z bayrami, Ro'za, Qurbon hayitlari hamda boshqa bayramlarda xalq katta ma'raka qozonlarda sumalak, osh va boshqa lazzatli taomlar tayyorlab bayram qilgan. Bu bayramlar Jumbil baxshisiz o'tmagan. Qamay ahli baxshi tomonidan aytilayotgan dostonlarni ko'm-ko'k maysalar, chim ustida o'tirib tinglar ekanlar. Ana shu bayramlarda sukunatni faqatgina Jumbil baxshining ovozi va do'mbirasi buzar ekan. Ertalab boshlangan bayram ertasi kuni tonggacha davom etgan, shunda ham odamlar doston eshitib joyidan qo'zg'algisi kelmagan ekan.

Xalq og'zaki ijodining asosiy qismi bo'lgan dostonlar bir necha asrlar avval xalqning o'zi tomonidan yaratilgan. Jumladan, "Alpomish" dostoni olimlarimizning ta'kidlashicha, X-XI asrlarda yaratilgan. Dostonlar yaratilganidan beri chechan baxshilar tomonidan kuylanib kelgani sababli u bizgacha yetib kelgan, zero Jumbil baxshiga o'xshagan baxshilar sabab xalq og'zaki ijodi bo'lgan dostonlar kitob shaklida bizning kutubxonalarimizdan joy olgan va xalqimizning bayram va tadbirlarida zamonamiz baxshilari tomonidan kuylanmoqda.



**Shuhrat RUSTAMOV,  
O'zbekiston Yozuvchilar  
uyushmasi a'zosi**

## Dolzarb mavzu

Kun botar mahal shahar boshqacha tus oladi. Osmonda quyoshning so'nggi nurlari sekin-asta qizg'ish tilsimga aylanib, atrofni mayin ranglarga bo'yaydi. Shu pallada ko'chalarga chiqib sayr qilishni yaxshi ko'raman. Bahorning yengil, salqin shabadasi yurakka ora kirib, qalbni yuvgandek bo'ladi. Maysalarning xushbo'y hidi, gullagan daraxtlardan taralayotgan nafis ifor, qushlarning chug'ur-chug'uri – bularning barchasi bir-biriga uyg'unlashib, go'yo tabiatning yashirin musiqasiga aylanadi. Shu damlarda vaqt ham sekinlashgandek tuyuladi. Har bir nafas, har bir qadam, har bir nigoh alohida ma'no kasb etadi. Go'yo, tabiat o'zining eng nozik, eng beqiyos, go'zal lahzalarini aynan shu pallaga asrab qo'ygan – uni ko'ra olgan, his qila olgan inson uchun.

## UNUTILGAN

## bahor



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

Ammo bu go'zallik ichida yana bir manzara borki, u insonni o'ygatdiradi. Ko'chalarda odamlar guvillab qayerlargadir oshiqadi. Har kim o'z yo'lida, o'z xayoli bilan band. Qo'llarda esa kichikkina oynaga o'xshash sovuq ekran. Nigohlar unga qadalgan – go'yo butun olam shu tor doiraga sig'ib ketgandek. Shu manzarani kuzatarkanman, ular u dunyoda yashab emas, faqat vaqt o'tkazayotgandek tuyuladi. Barmoqlar ekran ustida sekin sirg'aladi: yuqoriga, yana yuqoriga... Cheksiz yo'l. Bir lahza bosh ko'tarilsa, vaqt allaqachon ilgarilab ketgan bo'ladi. Inson esa uning ortidan yetib ololmaydi. Shu tariqa umrning yana bir kuni sukut ichida o'tib ketadi.

So'nggi paytlarda yana bir holat ko'zga tashlanmoqda. Ko'zoynak taqqan yoshlar soni tobora ortib bormoqda. Axir kecha-kunduz ekranga tikilgan nigohlar xiralashadi, nur izlagan ko'zlar esa o'sha nurning o'zida toliqadi. Ilgari bunday holat kamdan-kam uchrrar, hatto ko'zga g'alati tuyulardi. Bugun esa u oddiy bir manzaraga, hatto odatiy ko'rinishga aylanib ulgurdi. Ajabki, buni bilib turib ham, biz o'zgarmaymiz. Aksincha, endigina dunyoning ranglarini kashf etayotgan, quyosh nurini, maysa hidini, ona mehrini his qilishi kerak bo'lgan chaqaloqning qo'lga ham shu "matoh"ni tutqazamiz. U yig'lamasin deymiz, ovuna qolsin deymiz... Ammo shu sokinlik ortida qanday sukunat ulg'ayayotganini o'ylab ko'rmaymiz.

Ijtimoiy tarmoqlar – bu rangli niqoblar sahnasi. Unda har kim o'zining eng chiroyli lahzalarini

namoyish qiladi. Tabassumlar suratga muhrlanadi, baxt esa chiroyli ramkalarga joylanadi. Ammo o'sha kulgilar ortidagi dard, muvaffaqiyat ortidagi mehnat, baxt ortidagi sinovlar ko'zga tashlanmaydi – ular sukut pardasi ortida qoladi. Inson esa bu manzaralarga termilib, o'z hayotini ham ular bilan solishtira boshlaydi. Begona hayotlar ichida o'z ovozi sekinlashib, o'zligidan uzoqlashib boraveradi. Eng yomoni esa hayotini boy beradi...

Ba'zan odamlar oqimiga qarab, ularni zanjirband mahbuslarga o'xshataman. Faqat bu zanjir ko'rinmaydi – u qo'limizdagi ekranda. Mana shu matohga bog'lanib qolgan insonlarga tabiatni, osmonni, atrofdagi go'zallikni ko'rish taqiqlangandek. Go'yo jazo shunday: qara, lekin ko'rma; eshit, lekin his qilma!

Kuni kecha o'zim uchun kichik bir kuzatuv o'tkazdim. Uyimiz yaqinidagi anhor bo'yab cho'zilgan piyodalar yo'lagida odamlarni kuzatdim. Qancha inson tabiatni his qilib yurarkin, degan o'y meni shu yerga yetakladi.

Natija hayratlanarli bo'ldi. Ikki kishi yo'lini ko'rmay, ariqqa tushib ketdi. Bir necha kishi bir-biriga urilib ketdi. Qolganlar esa telefonidan bosh ko'tarmay, yo'lida davom etardi. Yo'lovchilarning aksariyatida bo'yin qismining egilib qolgan ham e'tiborimni tortdi. Soatlab ekranga qarashning natijasi shu bo'lsa kerak. Telefonining quvvati tugab qolgan bir necha odam esa birdan asabiylashib ketdi. Kimdir o'zi bilan o'zi gaplashdi, kimdir qo'lga qarab norozi ovoz chiqardi. Go'yo, ularni hayot bilan bog'lab turgan ip uzilib ketgandek.

Yo'lning oxiriga yaqinlashganimda esa tamoman boshqa manzaraga duch keldim. Bir otaxon nabirasini bag'riga bosganqa quyosh botishini tomosha qilib o'tirardi. Maysa shamolda tebranar, atrofda bahor nafasi sezilardi. Shu ulkan olomon orasida faqat shu insongina bahorni his qilayotgandek edi.

Beixtiyor otaxonni suhbatga tortdim:

– Bu yil bahor juda go'zal keldi-ya, bobo?

– Nimasini aytasan, bolam, – dedi u tabassum bilan. – Hammayoq ko'klam. Daraxtlar xuddi yangi kelinchakdek egilib turibdi.

So'ng u bir lahza to'xtab, atrofga ishora qildi:

– Qara, bolam, hammasi qo'llariga "sajda" qilib ketyapti. Na bahorni ko'radi, na umr o'tayotganini sezadi. Bu temir narsa insonning sog'inchini ham bosolmaydi. Men nabiramni sog'insam, uning ko'zidagi nurni ko'rishni istayman, telefondagi tasvirini emas...

Otaxonning so'zlari qalbinga og'ir botdi. Shu payt o'zim ham oylab qishloqqa bormaganim, onamning "bir kelib ket", degan so'zlarini turli bahonalarga bilan kechiktirayotganim yodimga tushdi.

Keyin u mendan bir iltimos qildi. Yo'l yoqasidagi sinib qolgan daraxt shoxini birga suyab qo'ydik. Shu paytda o'yladim: har kuni shu yerdan o'taman, ammo bu daraxtni ko'rmaganman. Otaxon esa uning taqdiriga befarq bo'lmagan.

Bu oddiy ish emas edi – bu hayotga bo'lgan e'tibor edi.

Otaxon nabirasini yetaklab, qushlarni ko'rsatar, tabiat haqida

gapirar ekan, tun qo'yniga singib ketdi. Olomon esa hali ham o'z "olami"da, boshini egganqa o'taverdi, o'taverdi...

Biz yashayotgan zamon bizga beqiyos imkoniyatlar berdi: tezkor aloqa, qulaylik, cheksiz axborot. Ammo shu bilan birga, eng oddiy ne'mat – yashab turgan lahzani his qilishni sekin-asta tortib olmoqda. Odamlar uzoqni yaqin qilmoqchi bo'lib, yaqinlarini uzoqlashtirib qo'yayotgandek.

Aslida esa baxt juda oddiy: bahorning mayin shamolida, quyosh botishini tomosha qilishda, yaqin inson bilan samimiy suhbat qurishda. Bu baxtni topish uchun katta boylik ham, zamonaviy qurilmalar ham kerak emas. Faqat ochiq ko'z, uyg'oq qalb va birozgina e'tibor kifoya. Zero baxt – qo'l bilan ushlab bo'lmaydigan, ammo qalb bilan his qilinadigan ne'mat. U shovqin-suron orasida emas, balki sokin lahzalarda, oddiy onlarda yashirin.

Bir lahza to'xtab, tabiat go'zalligini his qilish, bahorning nafasini tuyish, yaqin insoning bilan dildan suhbatlashish bu – hayotning eng qimmatli boyligi. Uni izlash kerak emas, uni ko'ra bilish, his qila olish kerak aslida.

Siz nima deysiz, aziz zamondosh? Balki biz bu shoshqin dunyoda eng muhim narsani – yashab turgan lahzani unutib qo'yayotgandirmiz? Balki, baxt biz izlagan uzoq manzil emas, balki hozir, shu onning o'zidir?

Muhammadali G'AFFOROV,  
"Vatanparvar"

Armiya – jasorat maktabi

# HARBIY-VATANPARVARLIK tarbiyasi

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash har bir davlat uchun muhim vazifalardan biridir. Chunki Vatan himoyasi, uning mustaqilligi va tinchligini saqlash yosh avlodning bilimli, jasur va fidoyi bo'lishiga bog'liq. Vatanparvarlik o'z yurtini sevish, unga sadoqat bilan xizmat qilish demakdir.

Bugungi kunda yoshlarga oid davlat siyosati mamlakatimizning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilib, barcha vazirlik va idoralar zimmasiga ushbu sohada kechiktirib bo'lmaydigan muhim vazifalar yuklatilgan. Ushbu topshiriqlar ijrosini samarali tashkil etish maqsadida Mudofaa vazirligi tomonidan yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan keng qamrovli, tizimli hamda maqsadli chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.

Mazkur yo'nalishda olib borilayotgan ishlar qamrovi keng bo'lib, unda yosh harbiy xizmatchilar bilan bir qatorda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari, o'quvchi va



Surat tahririyat arxividan olindi

talabalar, mahalla yoshlari, shuningdek vazirlikka biriktirilgan, alohida ishlash talab etiladigan va jinoyat sodir etishga moyil bo'lgan "og'ir" toifadagi yoshlar ham faol jalb etilmoqda.

Vazirlik tomonidan yil boshidan beri ushbu yo'nalish bo'yicha tizimli ravishda qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, O'zbekiston yoshlar ittifoqining harbiy qism va muassasalardagi boshlang'ich tashkilotlari tomonidan "Vatanparvarlik va ijtimoiy tadbirlar" yo'nalishida 189 marotaba, "Sport musobaqalari va intellektual o'yinlar" bo'yicha 343 marotaba, "Huquqiy targ'ibot va profilaktik tadbirlar" doirasida 294 marotaba tadbirlar o'tkazilib, mazkur jarayonlarda yosh harbiy xizmatchilarning keng qamrovli ishtiroki ta'minlandi.

Vazirlikka biriktirilgan, alohida ishlash talab etiladigan va jinoyat sodir etishga moyil bo'lgan "og'ir" toifadagi yoshlar bilan 926 marotaba vatanparvarlik yo'nalishidagi tadbirlar hamda 515 marotaba huquqiy savodxonlikni oshirishga qaratilgan tadbirlar o'tkazildi.

"Armiya – vatanparvarlik va jasorat maktabi" shiori doirasida maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari, umumta'lim maktablari o'quvchilari, oliy ta'lim muassasalari talabarlari hamda mahalla yoshlari ishtirokida 4 093 marotaba harbiy-vatanparvarlik ruhidagi tadbirlar tashkil etildi.

Yuqorida qayd etilgan yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida amalga oshirilgan ishlar natijasida yosh harbiy xizmatchilarning harbiy xizmatga bo'lgan qiziqishi va ishtiroqi ortib bormoqda, yoshlarda

esa Vatanga muhabbat tuyg'usi yanada mustahkamlanmoqda. Shuningdek, vazirlikka biriktirilgan, alohida ishlash talab etiladigan va jinoyat sodir etishga moyil bo'lgan "og'ir" toifadagi yoshlar bilan olib borilgan tizimli ishlar natijasida ularni ijtimoiy jihatdan sog'lomlashtirishga erishilmoqda.

Quvonarli jihati shundaki, yoshlar bilan amalga oshirilayotgan harbiy-vatanparvarlik tadbirlari o'zining ijobiy natijasini bermoqda. Xususan, muddatli harbiy xizmatni o'tashga qiziqish bildirgan yoshlar va oliy harbiy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish uchun murojaat qilganlar soni joriy yilda sezilarli darajada ortdi.

Kelgusida ham yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlarini tizimli ravishda davom ettirish maqsadida Mudofaa vazirligi Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik va yoshlar bilan ishlash departamenti tomonidan ushbu yo'nalishda ustuvor vazifalar belgilab olingan bo'lib, ularni amalga oshirish yuzasidan aniq chora-tadbirlar ishlab chiqilgan.

**Kapitan Sardorjon ABDURAIMOV,**  
**Mudofaa vazirligi Chaqiruvga**  
**qadar boshlang'ich tayyorgarlik va**  
**yoshlar bilan ishlash departamenti**  
**bo'lim katta ofitseri**

Kelajagimiz egalari



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

## YOSHLAR IMKONIYATLAR foydalanuvchisimi yoki yaratuvchisi?

Bugungi tez o'zgarayotgan zamonda iqtisodiyotning eng muhim tayanchlaridan biri – bu inson kapitali, ayniqsa yoshlar hisoblanadi. Har qanday jamiyatning kelajagi yosh avlodning bilimiga, tashabbusiga va iqtisodiy jarayonlardagi faol ishtirokiga bevosita bog'liq.

O'zbekiston misolida qaraydigan bo'lsak, aholining katta qismini yoshlar tashkil etadi. Bu esa bir tomondan ulkan imkoniyat bo'lsa, ikkinchi tomondan katta mas'uliyat hamdir.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda aholining qariyb 60 foizi 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar hissasiga to'g'ri keladi. Bunday demografik holat mamlakatni "yoshlar mamlakati" deb atashga asos beradi. Shunday katta salohiyat to'g'ri yo'naltirilsa, iqtisodiy o'sishning eng asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylanishi mumkin. Shunda tabiiy savol tug'iladi: yoshlar bu imkoniyatlar davrining oddiy foydalanuvchisimi yoki uning yaratuvchisiga ham aylanmoqdam?

So'nggi yillarda yurtimizda yoshlar uchun yaratilayotgan sharoitlar sezilarli darajada kengaydi. Ta'lim tizimidagi islohotlar, IT sohasining rivojlanishi, startaplarni qo'llab-

quvvatlash hamda yosh tadbirkorlar uchun berilayotgan imtiyozlar buning yaqqol misolidir. Xususan, IT park rezidentlari orasida yoshlar ulushi ortib borayotgani ularning faqat ish izlovchi emas, balki ish yaratuvchi sifatida ham shakllanayotganini ko'rsatadi.

Iqtisodiy nuqtayi nazardan qaraganda, yoshlarning mehnat bozoridagi faolligi ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi. Chunki yosh avlod texnologiyalarga tez moslashadi, yangi g'oyalarga ochiq bo'ladi va raqamli iqtisodiyotga tez kirib boradi. Bugungi kunda elektron tijorat, freelancing va IT xizmatlar sohasida aynan yoshlar yetakchilik qilayotgani ham shundan dalolat beradi.

Shu bilan birga, ayrim muammolar ham mavjud. Hali ham imkoniyatlarni to'liq anglab yetmagan, tayyor natijani kutib yashaydigan yoshlar yo'q emas. Ishsizlik, kasbga yo'naltirish

tizimidagi ayrim kamchiliklar hamda amaliy tajriba yetishmasligi ular salohiyatining to'liq ochilishiga to'sqinlik qilmoqda. Natijada "foydalanuvchi" va "yaratuvchi" tushunchalari o'rtasidagi farq yanada yaqqol ko'zga tashlanadi.

Aslida esa zamonaviy iqtisodiyot shuni ko'rsatadiki, hech bir davlat faqat tabiiy resurslar yoki geografik joylashuv bilan rivojlanmaydi. Taraqqiyotning eng muhim omili – bu inson, uning bilim va tashabbusi.

Yoshlar – faqat kelajak emas, balki bugunning ham eng faol qatlami. Agar ular faqat imkoniyatlardan foydalanuvchi bo'lib qolsa, jamiyat rivojlanishi sekinlashadi. Ammo agar ular yangi imkoniyatlar yaratuvchisiga aylansa, iqtisodiyot ham, jamiyat ham yangi bosqichga chiqadi. Demak, yoshlar faqat imkoniyatlar davrining foydalanuvchisi emas, balki uning eng muhim yaratuvchisi bo'lishi kerak.

**Valisher ABIROV,**  
**Toshkent davlat sharqshunoslik**  
**universiteti dotsenti.**  
**Shahnoza ZIYOVIDDINOVA**  
**1-bosqich talabasi**

Keling, kitob o'qiyimiz!



# NURDEK QAYTAY kaftingga, Vatan

Qachon uni o'qiy boshlagan edim? Gazetada e'lon qilingan... Yo'q-yo'q, u kitobini hadya qildi, "Nastarin"ni. Aynan shu "Nastarin" tufayli uni yaqinroq tanidim. Bu oddiy kitob emas edi, bu yosh ijodkorning nafosatga to'la olami edi.

Uning yozganlari... Oddiy ammo ko'ngilning chizgilari, nazokatli insonning kuzatuvlari, xulosalari. Ish stolimda uning yana bir sovg'asi "Qushlar salovati" turibdi. Varaqlab tursam, fotomuxbiri Bahrom Abdurahimov kelib qoldi. Kitobni qo'liga olib, uyoq-buyog'iga qaradi-da: "Bilasizmi, shu qiz bizning talato'p dunyoning odami emas, samoviyi-yey, toza, samimiyda!" desa bo'ladimi. Rostini aytsam, undan bunday gapni kutmagan edim. Samoviy, toza, samimiy! Demak, u shunday yuksak bahoga munosib iz qoldirgan.

Ha, aytganicha, bu ijodkor "Vatanparvar" gazetasi jamoasiga begona emas. Birmuncha vaqt gazeta muxbiri bo'lib faoliyat yuritdi. Shuning barobarida taniqli insonlarning harbiy xizmat bilan bog'liq xotiralari, bugungi milliy armiyamizga oid fikr-mulohazalari aks etgan vatanparvarlik mavzusidagi ko'rsatuvlarga mualliflik qildi.

Qarang, shuncha gapni gapiribman-u ijodkorni o'quvchilarimizga tanishtirmabman.

Shoira, adiba,  
tarjimon,  
O'zbekiston

Yozuvchilar uyushmasi a'zosi Nargiza Asadova. Bugun uning "Qushlar salovati" kitobini tavsiya etamiz.

"Qushlar salovati"ga so'zboshini taniqli shoira Halima Ahmedova yozgan. Aziz o'quvchi, kitob nomiga e'tibor berdingizmi? Bir boshqacha, hali kitobni varaqlamay turib she'rdan darak berayotganini his qilasiz. Muallifning aytishicha, bu nom ham mashhur shoiramizning taklifi bilan tanlanibdi.

"So'zboshi"dan o'qiyimiz: "She'r qanday tug'iladi? – degan savolga haligacha tayinli javob yo'q. Hakimlar inson vujudida safroning ko'payishidan, shoirlar armondan, adabiyotshunoslar hayotni anglashdan, deya javob beradi. Mening quloqlarimda esa Odam Atoning sevimli o'g'li Hobilni sog'inib aytgan yig'i-yo'qlovi tinmay jaranglayveradi. Ha, judolik ham, sog'inch, shodlik, qayg'u va umid ham aslida she'r.

Nargizaning "Qushlar salovati" nomli yangi kitobini o'qib, qorong'i tun ichidan tongni izlayotgan, quyoshga qarab turib qayg'uga hamsafar ekanligini anglagan shoira qalbini ko'rdim".

Inson o'ziga yoqqan narsasini boshqalarga ilinishi... Har doim ham ilinish qiyin. Yaxshi kitobni ilinsa bo'ladi, demoqchi edim, ishonch bilan. O'ylaganim sari bu ishonchimga ham "putur yetdi". O'zimdan xulosa qiladigan bo'lsam, bergan kitobimni so'ray-so'ray qaytarib olgan joylarim ham bor. Ammo o'qigan

kitoblarimni, meni mutaassir etgan asarlarni jon deb tavsiya etaman. "Qushlar salovati" ulardan biri.

Nargiza Asadovaning mana bu to'rtligi allaqachonlar ko'nglim mulkiga aylangan. Uni o'z-o'zimcha takrorlab yuraman, xuddi menga tegishlidek, menikidek:

"Ko'cha. Bekat. Odamlar,  
Maydalikdan dil to'yan.  
Nazarimda odamlar –  
Ko'kka qaramay qo'yan..."

Dunyo tashvishlarini bir lahzaga unutib, ko'kka termilar bo'lsangiz, moviy kengliklar ko'nglingizga ham ko'cha boshlaydi, ishonning.

She'riyatning sehri bor. She'r yangragan davralarda so'zlar qanot qoqib ucha boshlaydi, odamlarni o'ziga tortib oladi. Bir kuzatib ko'ring-a. Davrada mast bulbuldek Shoir va So'z... yuraklarni zabt eta boshlaydi.

O'qiyimiz:

"Yaproqlardan to'kiladi kuz,  
Tuslanadi zamin tushlari.  
Daraxtlardan uzolmay ko'ngil,  
Uchib ketar janub qushlari..."

Bu huzunli manzara nega bunchalar qadrdon, tanish?! Chunki siz-u biz unga necha bor guvoh bo'lganmiz, horg'in tuyg'ularga asir bo'lganmiz. Shoir esa buni qog'ozga ko'chirdi.

Yoki mana bu manzaraga e'tibor bering-a. Yo'q, yo'q, she'rdan mana bu parchani o'qiyimiz demoqchi edim:

"Yuksak tog'lar qoshidan tushib,  
Kengliklarga o'rladi jilg'a.  
O'tar ekan shivirlab tongning  
Qulog'iga taqdi u sirg'a.  
Dast ko'tardi boychechak qaddin,  
Parcha qordan chekmay xijolat".

Sizning ham ammingiz bormi? Amma otaning bir parchasi, aziz otaning aziz parchasi. Kitobda "Ammam xotirasiga" degan she'r

bor. Qanday ta'riflasam ekan? She'rni ta'riflash ham qiyinda. G'oyat o'zbekona! O'qiyimiz:

"Darvozasi ochilmas qiya,  
Supalari qolgan huvullab.  
Bu hovlining suyansang endi,  
Duvollari boradi nurab.  
Qarolmaydi hech kim botinib,  
Ma'yusgina eski suratga.  
Qizlar kelar endi qimtinib,  
Ota uyda – o'xshaydi yotga".

Ijodkorning ona haqida go'zal she'rlari bor. Ona qalbini ona anglaydida. O'zbekiston xalq rassomi Akmal Nurning "Onaizor" asarini ko'rgansiz. Bu rassomning eng mashhur asarlaridan biri. Uni ko'pchilik ko'rgan, kitob, jurnallar sahifalarida. Undagi intizorlik yurakning allaqayerini sizillatib yuboradi. Nargiza Asadovaning ana shu asardan ta'sirlanib yozgan "Onaizor"idan o'qiyimiz:

"Yorug' kecha...  
Nurafshon ochun  
Ruxsordan tushgan nurlardan.  
Sog'inchlardan oqargan boshi,  
Titroqlari – zorli kunlardan.  
Muazzam tong...  
Muzaffar g'ussa,  
Ko'zin ochar tiriklik yana.  
Kelar deya qarog'im bir kun,  
Ko'z yumguncha kutadi ona!"

Bir kitobni o'qiysiz. U sizga yana bir kitobga yo'l ochadi. Bir kichik epigraf, boshqa bir adib yoki shoirdan olingan misra, boshqa bir asarga ishora – bular ana shunday ochquvchi yo'llar. "Qushlar salovati"ning 111-betida "Nayman ona nolasi" she'ri bor. Bu she'r boshqa bir ulkan asardan ilhomlanib dunyoga kelgan. Agar siz turkiy dunyoning daho adibi Chingiz Aytmatovning "Asrni qaritgan kun" asarini o'qigan bo'lsangiz, bu she'rga shunchaki ko'z yugurtirib qo'ya olmaysiz. Uning har bir misrasidan dard bo'ylab turibdi. Uyg'oq onaning dardi. Yurakni tilka-pora qiladigan nola! Aslida shu she'rni to'lig'icha sahifaga joylagim keldi. Biroq o'zingiz izlanib topsangiz, uning qimmatini bo'lakcha bo'lishini sezib qoldim.

O'qiyimiz:

"Boshingni changallama,  
alla aytayin tunlar.

Shu kunga  
Solguncha, oh,  
Jonim olsin mal'unlar!  
Yur, ketamiz, yurting Sario'zak,  
O'qni tashla, onangman-ku, hoy?!  
Unutmagin... Kechirdim, bolam,  
Unutmagin otang Do'nanboy".

Vatan, Vatanga mehr-muhabbat haqida har kimning o'z aytar so'zi bor. Nargiza shunday yozibdi:

"Ketayapman, manzilim olis,  
Kiprigimdan sirg'aldi shabnam.  
Bag'ringdan uchib qushdayin,  
Nurdek qaytay kaftingga, Vatan..."

Nurdek... Ha, shunday ijodkor bor. Kichik yuragiga quyoshni ortmoqlab olgan Ayol. Yoshlar unga intiladilar, katta ijodkorlar e'tirof, mehr bilan tilga oladi. Aziz o'quvchi, Nargiza Asadovaning ijod olamidani bahramand bo'ling, uning asarlarini qizlaringizga tuhfa qiling, ko'ngillariga poklik, nazokat, yurtsevarlik ko'chmas bo'lib insin!

Huzurli mutolaalar tilagi bilan,

Inobat IBROHIMOVA,  
"Vatanparvar"

Voqeyiy hikoya

# ORIYATSIZ o'g'il



2011-yil, serfayz qishloq hovlisi. Xonadon mehmonlar bilan gavjum. Bugun G'aybulla aka bilan Muharram opa o'g'illari Jamshidni uylantiryapti. Ota-onaning quvonchi cheksiz. Er-xotin ikki-uch kundan buyon tin olmadi, uxlamadi hisob. Axir elga to'y berish, kelin tushirishning o'zi bo'ladimi?! Bir tomoni o'g'illari harbiy xizmatchi, ofitser. Harbiy bilim yurtida birga tahsil olgan do'stlari, xizmatdagi safdoshlari tashrif buyurgan. Qator uylar, hovliga joylashtirilgan to'kin xontaxta-yu stol-stullar mehmonlarga muntazir. Erta tong "nahor oshi"dan boshlangan to'y tadbiri "xotin oshi", "kollektiv davrasi" kabi mehmon kutish bilan davom etmoqda.

Hovlining chetiga oq bo'zdan o'rab qilingan "oshxona"dagi bir qator katta qozonlarda tayyorlanayotgan osh-ovqatlar navbati bilan mehmonlarga tortilyapti. Biqirlab qaynayotgan samovar boshidagi yigitchalarning qo'li qo'lga tegmaydi.

Muharram opaning kayfiyati ko'tarinki. Uch-to'rt kundan buyon bedorligiga qaramay, charchoq neligini sezgani yo'q. Axir o'qimishli, chiroyli, chevar-chechan kelin olyapti. Ha, bo'lajak kelin – Laylo chindan-da suluv. Bunday kelin hammaga ham nasib qilavermaydi. Ofitser o'g'liga har jihatdan mos. Bir tomoni o'zining uzoq qarindoshi. Yigitning harbiy sohada xizmat qilishi qudalarning roziligiga sabab bo'ldi. Endi bag'ridan uzoqda xizmat qilayotgan jigarporasining isiq-sovug'idan xavotir olmasa ham bo'ladi. To'ydan keyin rasm-rusumlarni tezroq yakunlab, o'g'lining oldiga kelinini olib borib qo'yadi, ko'ngli xotirjam tortadi.

Ana, kelin-kuyov mashinasi darvozaxona oldiga kelib to'xtadi, to'y ahli ularga peshvoz chiqishga shoshildi. Davrada "to'ylar muborak" sadosi yangradi, o'zgacha fayz, o'zgacha shukuh. Muharram opaning qalbi hayajonda...

\*\*\*

– Dada, xizmatga qaytmasam bo'lmaydi, – to'ydan besh kun o'tib, otasiga vaziyatni tushuntirdi Jamshid. – Komandirim "Tez yetib kel!" deb qo'ng'iroq qildi. Bilasiz-ku, vazifam mas'uliyatli.

– Harbiylarning hayoti shunday, – xo'rsindi oila boshlig'i. – Qachon yo'lga tushmoqchisan?

– Hoziroq ketsam yaxshi bo'lardi, buyruq buyruq-da!

– Bu nima deganing o'g'lim, otpuskangning yarmi ham o'tmadi-ku? – hayrat ila suhbatga qo'shildi Muharram opa. – Hali kelin tomonning chaqirdisi turibdi.

– Qiziqsan-da, xotin, o'g'ling oddiy kasb egasi emas, – biroz viqor bilan o'g'lining o'midan javob qaytardi G'aybulla aka. – U harbiy xizmatchi, yurtga kerakli odam. Chaqirdimi, borishi shart!

– Unda kelinni qachon olib ketasan? – o'g'liga termildi ona.

– Harbiy qismga boray-chi, nima gap? Vaziyatga qarayman-da...

Jamshid shu tariqa ko'zlari baxtdan yonib turgan kelinchakni ota-onasining oldida qoldirib, xizmat joyiga jo'nab ketdi. Oradan haftalar, oylar o'ta boshladi. Har gal uning telefondagi javobi bitta: "Oilaviy yashash uchun yaxshiroq joy izlayapman. Ko'nglimdagidek joy topilmayapti, sharoit yaratib, keyin olib kelaman..."

Oradan uch oy o'tgach, Muharram opa "Jamshidbegim, ota-onam umid bilan kelin qilgan, xotinim uch-to'rt oy ularning xizmatida bo'lsin, deb istihola qilyapti chog'i. Yaxshisi, kelinimni o'zim olib bora qolay, yoshlar hayotining boshidan birga yashab, qo'sha qarisin", degan shirin o'yda Layloni olib yo'lga otlandi. G'aybulla aka xotininin maqsadini qo'llab-quvvatladi. Er-xotin voqealar kutilmagan tus olishini xayoliga keltirmagan edi...

Muharram opa o'g'lini harbiy qismdan topa olmagach, safdoshlarining ko'magi bilan u yashab turgan ijara

uyiga bordi. Bordi-yu... Onaizor va kelinchak "yetti uxlab tushiga kirmagan" ayanchli manzaraga duch keldi. Jamshid o'zidan ancha yoshi katta xonadon bekasi Alfiya bilan yashab yurgani oshkor bo'ldi. Yanada ayanchlisi, uch farzandning onasi Alfiyaning qonuniy eri bo'lib, u oilasi ta'minoti uchun xorijga ishlagani ketgandi.

"Bu yaqindagina "o'g'lingizning tutingan opasiman", deb to'yga borib, sarpolar kiyib qaytgan ayol-ku", rangi o'zgardi Muharram opaning. "Yo'q! bunday bo'lishi mumkin emas... Mening o'g'lim bunday razillikka bormaydi..."

Yuksiz ayolning behayo harakati-yu, ishongan o'g'lining oriyatsizligi Muharram opaning yuragiga sanchiq bo'lib kirdi, dard bo'lib kirdi. "Asal oyi" deb atalmish ilk oilaviy hayoti kutilmagan to'fonga duch kelgan, kelinlik orzulari chil-chil singan go'zal Laylo esa dokadek oqarib qotib turardi. Jamshid onasining oldida bosh egib turgan bo'lsa-da, nigohida hech qanday afsus va nadomat sezilmasdi.

"Bu xatoni to'g'rilash kerak", o'zini qo'lga oldi ona. "Hoziroq komandirlaridan iltimos qilaman, o'g'limning xizmat joyini tezroq boshqa hududga ko'chirishlarini so'rayman. Bu ayoldan qancha uzoq bo'lsa, shuncha yaxshi". Vaziyatdan xabar topgan harbiy qism komandiri holatni o'rganib chiqdi. Jamshidga ofitser ustozlari o'git va maslahatlar berdi. Farzandining oilasini saqlab qolish, o'g'lini xato yo'ldan qaytib, o'zini qo'lga olishi uchun imkoniyat yaratishlarini so'ragan bag'riqon onaning iltimosi qondirildi. Yosh ofitserning xizmat joyi o'zgartirildi.

Bu gal farzandining vijdotsizligidan ko'ksi ezilgan G'aybulla aka bolasining oilaviy hayoti izza tushib ketishi uchun astoydil harakat qildi. Kelin-kuyov uchun harbiy qism yaqinidan ijaraga uy topdi. O'g'liga ming bir nasihat ila Layloni uning oldiga tashlab qaytdi.

– Sabringiz uchun sizga rahmat, qizim, – qaytish oldidan keliniga minnatdorlik bildirdi G'aybulla aka. – Oila sirini, obro'sini saqlay oladigan sizdek oqila farzand ulg'aytirgan ota-onangizga rahmat. Hali hammasi yaxshi bo'ladi.

– Baxtimizga sog' bo'ling, dadajon, – siniq jilmaydi Laylo.

– Tashvish qilmang, Jamshidbek bir adashdi-da, bu yo'lga qayta oyoq bosmaydi. Onangiz bilan tez-tez kelib turamiz...

Biroq otaning orzulari sarob bo'lib chiqdi. Noqobil o'g'il tanlagan yo'lidan qaytmadi. Erining mehrsiz va bee'tiborligidan begona joylarda yolg'izlanib qolgan Laylo o'z oilasiga qaytishga majbur bo'ldi. Kelinchakning achchiq ko'zyoshlari, o'g'illarining qarindosh-urug', el-yurt oldidagi sharmandali harakati ota-onaning qaddini egdi. Negaki Jamshidning jazmani Alfiya ikki farzandini bolalar uyiga topshirib, qizchasi bilan u xizmat qilayotgan joyda birga yashamoqda edi.

O'g'lini to'g'ri yo'lga solish maqsadida onaizor yana yo'lga otlandi. Komandirlaridan unga xizmat ta'tili berishlarini zorlanib iltimos qildi. Maqsadi – ezgu-rishtalar ila bog'langan yangi oilani asrash, qolaversa, katta bir oilaning buzilib, bolalarini tirik yetim bo'lishga

sababchi bo'lgan bag'ritosh o'g'lini bu qing'ir yo'ldan qaytarish. Albatta, bu voqealardan xabardor bo'lgan xizmat boshliqlari ham qarab turishmadi.

Jamshidni xizmat burchiga, ofitserlik sha'niga har tomonlama loyiq bo'lishga da'vat etishdi. Ma'lum choralar ko'rildi va yana onaning iltimosi qondirildi – o'g'liga xizmat ta'tili berildi.

– Ona, shu yerda o'tirib turing, – shoshildi Jamshid. – Harbiy qismga borib, ta'tilga chiqqanim to'g'risidagi hujjatlarni to'g'rilab kelaman.

– Uzoq qolmay-sanmi, bolam?

– Yo'q, tez qaytaman, siz tayyorlanib turing.

Har lahzasi bedor o'tayotgan Muharram opa "ishongan tog'i"ning yo'lga ko'z tutishni boshladi. Bir soat... uch soat... Hamon o'g'lidani darak yo'q. Kuta-kuta holdan toygan onaizor o'g'lining pastkashligini tushunib yetgach, hushini yo'qotayozdi. Nobakor o'g'il (agar o'g'il deyishga loyiq bo'lsa) onasini na bir tanishi, na bir yaqini bor begona joylarga tashlab, jazmani bilan qochib ketgandi. Ona titrab-qaqshab, ko'z yoshlari yuzini yuvib uzoq yig'ladi...

Harbiy qismdagi yigitlar Muharram opaga onalariga mehr ko'rsatgan kabi dalda bo'lishdi. Qishlog'iga yetib olishiga yordam berishdi. Ana shunda Vatan, ona poyiga jon tikishga shay turgan yuksak qalb egalari – harbiylar safida o'g'li singari nomardlarga joy yo'q ekanini anglab yetdi. Ota-onaning iltimosi bilan Jamshid harbiy xizmatdan chetlatildi.

Muharram opa oriyatsiz o'g'lining suratiga termilib, qarog'laridan quyilayotgan achchiq yoshni ro'moli uchiga qayta-qayta artar ekan, beixtiyor uning ko'z oldida bolalik chog'lari gavdalandi: o'g'ilchasini dunyoga keltirish og'ir kechgandi o'shanda. Ayniqsa, onaning ahvoli barcha yaqinlarini jiddiy xavotirga solgan. Tortgan azoblari ortda qolib, ana jigarporasi atak-chechak qadam tashlayapti. Chala-yarim aytgan ilk so'zlari, "ona" degan so'zi xuddi hozirgidek yuragini orziqitirib o'tdi. Orqasiga sumkachasini osib, ilk bor maktabga chiqqan chog'lari-chi? U kunlarni eslash ona uchun qanchalar totli. Mana, u nihoyat sog'lom, ko'rkam bo'lib voyaga yetdi. Ota-onaning duolari-yu Jamshidbekning astoydil harakati sabab u egniga kursantlik libosini kiydi. El-yurt oldida G'aybulla aka bilan Muharram opaning ko'ksi osmon bo'ldi, go'yo.

Endi ona uchun sog'inch onlari boshlandi. Ona ona-da, bolasini "katta" o'qishga kirganidan qanchalar quvonmasin, bag'ridan uzoqdaligi dilini ezib turardi. O'g'lining yaxshi ko'rgan taomini tayyorlagan kun dasturxon ustida tomog'idan ovqat o'tmay, asta ko'zyosh qilib olgan paytlar ko'p bo'lgan. Va nihoyat, pahlavoni ofitserlik libosini kiydi...

Muharram opa xayoli shu yerga kelganida, yuragini changalladi... Ha, irodasiz, axloqsiz o'g'il ota-onani zor qaqqatdi. Chimildiqqa go'zal orzular ila kirgan farishta yanglig' qizning hayotini poymol qildi. Tirik yetimlar soni ko'paydi. Eng yomoni, ona xo'rlandi. Onani xo'rлагan inson esa hech qachon Vatanga sadoqatli bo'la olmaydi.

**Zulfiya YUNUSOVA,**  
"Vatanparvar"

# Maktabgacha yoshdagi BOLALARNING ASOSIY FIZIOLOGIK xususiyatlari

(Davomi. Bosh gazetaning o'tgan sonlarida).

## SEZGI A'ZOLARINING RIVOJLANISHI

Maktabgacha yoshda sezgi a'zolarining rivojlanishi muhim ahamiyatga ega. Ko'rish tizimi sezilarli yaxshilanishga erishadi. Bolalarning ko'rish o'tkirligi ortadi va rangli ko'rishning barcha jihatlarini rivojlanadi. Ammo ko'zlarining to'liq shakllanishi uchun yana vaqt kerak. Bu yoshdagi bolalarning ko'zlarini hali ham rivojlanish jarayonida bo'lgani uchun haddan tashqari yuk berilmasligi kerak.

Eshitish tizimi ham yaxshilanadi. Bolalar turli chastotalardagi tovushlarni yaxshiroq farqlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu ularning nutq rivojlanishi va til o'rganish qobiliyatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Biroq quloqlarning anatomik tuzilishi hali ham rivojlanish jarayonida bo'lgani uchun infeksiyalar va jarohatlardan himoyalash muhim.

Teginish sezgisi bu davrda yanada rivojlanadi. Bolalar turli teksturalar, harorat va bosimni aniqroq farqlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu sezgi orqali bolalar atrofdagi dunyo haqida muhim ma'lumotlar oladi va o'z motor ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Ta'm va hid sezgilari ham mukammallashadi. Bolalar turli ta'm va hidlarni aniqroq farqlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu ularning ovqatlanish xususiyatlariga va atrofdagi muhitga moslashishiga yordam beradi.

Barcha sezgi a'zolarining muvozanatlashgan rivojlanishi bolaning dunyoni to'liq idrok etishi uchun muhimdir. Shu sababli bu yoshda sezgi a'zolarini rivojlantirish uchun turli mashqlar va faoliyat turlarini taklif etish zarur.

## MOTOR KO'NIKMALARINING RIVOJLANISHI

Maktabgacha yoshda motor ko'nikmalar sezilarli rivojlanishga erishadi. Bu davrda bolalar murakkab harakat ko'nikmalarini o'rganadi va ularni mukammallashtiradi. Yirik motor ko'nikmalar dastlab rivojlanadi va bolalar yugurish, sakrash, poyga qilish, to'pni otish va tutish kabi faoliyatlarni yaxshi bajara oladi.

Nozik motor ko'nikmalarining rivojlanishi ham muhim ahamiyatga ega. Bolalar qalam tutish, chizish, kesish, yopishtirish va boshqa nozik harakatlarni amalga oshirish qobiliyatini egallaydi. Bu ko'nikmalar keyinchalik yozish va maktab faoliyatlari uchun zarur asosni tashkil etadi.

Ko'z va qo'l koordinatsiyasi bu davrda sezilarli yaxshilanadi. Bolalar ko'rgan narsalarini aniq tutish,



nishonga to'g'ri uloqtirish va nozik manipulyativ harakatlarni bajarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu ko'nikma bolalarning mustaqilligini oshirish va turli faoliyat turlarida muvaffaqiyat qozonish uchun muhimdir.

Muvozanat va koordinatsiya ham yaxshilanadi. Bolalar bir oyoqda turish, tor chiziq bo'ylab yurish, qiyshiq sirtlarda yurish va boshqa muvozanat talab qiladigan vazifalarni bajarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu qobiliyat bolalarning jismoniy faolligi va sport bilan shug'ullanishi uchun zarur asosdir.

Motor ko'nikmalarining rivojlanishi nafaqat jismoniy, balki kognitiv rivojlanish bilan ham bog'liq. Harakat jarayonida miya faoliyati kuchayadi va yangi neyron bog'lanishlar shakllanadi. Shu sababli bu yoshda jismoniy faollikni rag'batlantirish umumiy rivojlanish uchun muhim ahamiyatga ega.

## MAKTABGA TAYYORGARLIK MUAMMOSI

Maktabga tayyorgarlik muammosi maktabgacha ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon nafaqat bilim va ko'nikmalar egallashni, balki bolaning jismoniy, psixik va ijtimoiy rivojlanishining umumiy darajasiga erishishni ham nazarda tutadi. Maktabga tayyorgarlik murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, u bolaning kelajakdagi ta'lim muvaffaqiyatini belgilaydi.

Bolaning jismoniy salomatligi, emotsional barqarorligi, ijtimoiy moslashuv qobiliyati va kognitiv rivojlanish darajasi ham muhim ahamiyatga ega. Maktabga tayyorgarlik jarayonida bolaning individual xususiyatlarini hisobga olish muhimdir. Har bir bolaning rivojlanish surati, qobiliyatlari va ehtiyojlari turlicha bo'ladi. Shu sababli tayyorgarlik dasturlari moslashuvchan

bo'lishi va har bir bolaning ehtiyojlariga javob berishi kerak. Ota-onalarning faol ishtiroki va ularning uyda bolaga ko'rsatadigan yordami tayyorgarlik jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi.

Bolaning maktabga tayyorgarlik darajasini aniqlash murakkab va ko'p bosqichli jarayon hisoblanadi. Bu jarayonda bolaning turli rivojlanish sohalari erishgan yutuqlari baholanadi va uning maktab faoliyatiga qanchalik tayyor ekani aniqlanadi. Tayyorgarlik darajasini to'g'ri baholash bolaning kelajakdagi ta'lim muvaffaqiyatini prognoz qilish imkonini beradi. Tayyorgarlik darajasini baholashda kompleks yondashuv qo'llanilishi kerak. Bu nafaqat bolaning bilim va ko'nikmalarini, balki uning jismoniy rivojlanishi, emotsional holatini, ijtimoiy ko'nikmalarini va motivatsiya darajasini ham o'z ichiga oladi. Har bir sohadagi tayyorgarlik alohida baholanadi va umumiy xulosa chiqariladi.

Tayyorgarlik darajasini baholashda bolaning individual xususiyatlari hisobga olinishi kerak. Ba'zi bolalar ma'lum sohalarida boshqalardan oldinda ketishi, ba'zilar esa orqada qolishi mumkin. Bu holat normal hisoblanadi va har bir bolaning o'ziga xos rivojlanish sur'ati borligini ko'rsatadi. Baholash natijalari asosida har bir bola uchun individual rivojlantirish dasturi ishlab chiqiladi. Bu dastur bolaning kuchli tomonlarini mustahkamlash va zaif tomonlarini rivojlantirish yo'llarini o'z ichiga oladi. Shuningdek, ota-onalar uchun ham tegishli tavsiyalar beriladi.

## FIZIOLOGIK TAYYORGARLIK

Fiziologik tayyorgarlik maktabga tayyorgarlikning eng muhim asoslaridan biri hisoblanadi. Bu tayyorgarlik bolaning jismoniy

rivojlanishi, sog'lik holati va maktab yuklamalariga chidash qobiliyatini o'z ichiga oladi. Fiziologik jihatdan tayyor bola maktabdagi faoliyat rejimi va talablariga muvaffaqiyatli moslasha oladi.

Jismoniy rivojlanish parametrlari fiziologik tayyorgarlikning muhim ko'rsatkichlari hisoblanadi. Bolaning bo'yi, vazni, tana massasi indeksi, mushak kuchi va chidamliligi kabi parametrlar baholanadi. Bu ko'rsatkichlar bolaning yoshi uchun belgilangan me'yorlarga mos kelishi zarur.

Sezgi a'zolarining holati ham fiziologik tayyorgarlikning muhim qismi hisoblanadi. Ko'rish va eshitish qobiliyatlari, shu jumladan ko'rish o'tkirligi va tovushlarni farqlash imkoniyati baholanadi. Agar bu sohalar muammolar aniqlansa, maktabga kirishdan oldin ularni bartaraf etish zarur.

Nerv tizimining holati va uning barqarorligi ham muhim ahamiyatga ega. Bolaning diqqatni jamlash qobiliyati, xotira funksiyalari va reaksiya tezligi baholanadi. Nerv tizimining yetarli darajada rivojlanishi maktabdagi o'quv jarayonida muvaffaqiyat qozonish uchun zarur.

Umumiy sog'liq holati va immunitet darajasi ham fiziologik tayyorgarlikning muhim qismidir. Surunkali kasalliklarga moyillik, tez-tez og'rish va boshqa sog'liq muammolari bolaning maktabdagi faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli maktabga kirishdan oldin sog'liqni mustahkamlash zarur.

(Davomi bor)

**Jamila HUSANOVA,**  
**Harbiy xavfsizlik va mudofaa**  
**universitetining**  
**Quruqlikdagi qo'shinlar**  
**instituti dotsenti, t.f.f.d. (PhD)**

Islahotlar amalda



## TIZIMLI YONDASHUV – SAMARALI XIZMAT GAROVI

Mamlakatimizda milliy armiya salohiyatini oshirish, harbiy xizmatni zamonaviy talablar asosida tashkil etish borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, intizomni mustahkamlash va huquqiy savodxonlikni oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ana shu maqsadlardan kelib chiqib, mudofaa vazirining tegishli ko'rsatmasiga muvofiq, harbiy qismlarda "Harbiy qism yettiligi" tizimi joriy etildi. Mazkur tizim faoliyatini samarali tashkil etish, joylarda amalga oshirilayotgan ishlarni o'rganish hamda amaliy ko'mak ko'rsatish maqsadida Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondoni o'rinbosari rahbarligida "Nazorat va ko'maklashuv guruhi" shakllantirildi. Ayni paytda ushbu guruh Toshkent shahrida joylashgan harbiy qismda o'z faoliyatini olib bormoqda.

O'rganishlar davomida harbiy qismda xizmatni tashkil etishning yangicha tizimi doirasida amalga oshirilayotgan ishlar, shuningdek barcha toifadagi harbiy xizmatchilar bilan olib borilayotgan faoliyat har tomonlama tahlil qilinmoqda. Bu jarayon xizmat samaradorligini oshirish va mavjud kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Tadbirlar avvalida "Harbiy qism yettiligi" a'zolari hamda "Nazorat va ko'maklashuv guruhi" ishtirokida xizmat yig'ilishi o'tkazilib, unda harbiy qismning joylashuvi, xizmat



faoliyatining ustuvor yo'nalishlari va oldimizda turgan vazifalar tanqidiy-tahliliy ruhda muhokama qilindi. Shuningdek, har bir yo'nalish bo'yicha aniq vazifalar belgilab olindi va ishchi guruh a'zolari uchun amaliy hamda aniq rejalar ishlab chiqildi.

Nazorat va ko'maklashuv guruhi tomonidan harbiy xizmatchilarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, harbiy intizomni mustahkamlash, xizmat jamoalaridagi ijtimoiy muhitni o'rganish, sog'lom turmush tarzini

targ'ib etish hamda so'rovnomalar orqali shaxsiy tarkib fikrini o'rganish ishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu orqali milliy armiyamizda amalga oshirilayotgan islohotlarning amaliy natijalari o'rganilib, zarur hollarda aniq va manzilli yordam ko'rsatilmoqda.

Bunday tizimli yondashuv harbiy xizmatchilarning mavjud muammolarini o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish, shuningdek ular uchun munosib xizmat sharoitlarini yaratishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Eng muhimi, bu kabi sa'y-harakatlar harbiy xizmat samaradorligini oshirish, shaxsiy tarkibning ishonch va mas'uliyatini yanada mustahkamlashga zamin yaratadi.

Harbiy boshqaruv

## HISOBOT VA NATIJALAR

Mudofaa vazirligi Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligi boshqaruv apparatida 2026-yilning birinchi choragi yakunlariga bag'ishlangan hisobot yig'ilishi bo'lib o'tdi. Onlayn videosektor shaklida tashkil etilgan tadbirda qo'shinlar xizmati, jangovar tayyorgarlik, harbiy intizom, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda moddiy-texnik ta'minot yo'nalishlarida amalga oshirilgan ishlar atroflicha tahlil qilindi.



Yig'ilish tanqidiy va tahliliy ruhda o'tdi. Unda so'zga chiqqan mas'ul ofitserlar tomonidan birinchi chorak davomida bajarilgan ishlar, erishilgan natijalar hamda kelgusida amalga oshirilishi zarur bo'lgan ustuvor vazifalar xususida batafsil ma'ruzalar taqdim etildi.

Shuningdek, qo'shilma va harbiy qismlar komandirlarining hisobotlari tinglanib, joylarda

mavjud muammolar ochiq-oydin muhokama qilindi. Muammoli masalalar yuzasidan shu joyning o'zida aniq va manzilli ko'rsatmalar berildi.

Yig'ilish yakunida qo'shinlar qo'mondoni polkovnik Jur'at Yaqubov so'zga chiqib, hisobot davrida yo'l qo'yilgan kamchiliklardan to'g'ri xulosa chiqarish, ularni bartaraf etish va



faoliyat samaradorligini oshirish bo'yicha qator vazifalarni belgilab berdi. Shu bilan birga, kelgusida Mudofaa vazirligi miqyosida o'tkaziladigan ko'rik-tanlov va musobaqalarda yuqori natijalarga erishish ustuvor vazifalardan biri sifatida qayd etildi.

Albatta, tanqidiy tahlilga asoslangan bunday yig'ilishlar faoliyatdagi kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etish, har bir bo'linma zimmasiga yuklatilgan vazifalarni sidqidildan va mas'uliyat bilan bajarishga xizmat qiladi. Zero tanqid taraqqiyotga eltuvchi muhim omildir.

## Matonat maktabi

Sharqiy harbiy okrug Namangan garnizonida joylashgan harbiy qismda viloyatdagi umumta'lim maktablarining 10-11-sinf o'quvchilaridan tashkil topgan "Vatan tayanchi" otryadi a'zolari o'rtasida "Vatanparvarlar" harbiy sport musobaqasining viloyat bosqichi yuqori saviyada o'tkazildi. Tadbir yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning jismoniy va ma'naviy salohiyatini oshirish hamda harbiy xizmatga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish maqsadida tashkil etildi.

Musobaqaning tantanali ochilish marosimida so'zga chiqqanlar bugungi yoshlarning faolligi, ularda yurt taqdiriga daxldorlik hissi tobora mustahkamlanib borayotganini alohida ta'kidladi. Shuningdek, bunday bellashuvlar yoshlar qalbida jasorat, matonat, intizom va jamoaviy jipslik kabi muhim fazilatlarini shakllantirishda beqiyos ahamiyatga ega ekani qayd etildi.

Bellashuvlar jarayonida ishtirokchilar bir qator murakkab, lekin qiziqarli shartlar asosida o'zaro kuch sinashdi. Merganlik bo'yicha bahslar o'quvchilarning aniqligi va diqqatini charxlagan bo'lsa, turnikda tortilish mashqlari ularning jismoniy tayyorgarligini namoyon etdi. Harbiylashtirilgan estafetada esa qatnashchilar tezkorlik, chaqqonlik va jamoaviy uyg'unlikni amalda isbotladi.

# Epchil yoshlar bellashdi



Ayniqsa, jabrlanuvchiga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish sharti alohida ahamiyat kasb etdi. Unda yoshlar favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish, inson hayotini asrab qolishga doir muhim ko'nikmalarini namoyish etdi. Safda qo'shiq aytish bahsi esa harbiy ruh, intizom va birdamlikni yorqin ifoda etgan chiqishlar bilan yodda qoldi.

Shuningdek, "Temur tuzuklari" bilimdoni" sharti orqali ishtirokchilarning tarixiy bilimi, ajdodlar merosiga bo'lgan hurmati va milliy qadriyatlarga sadoqati sinovdan o'tkazildi.

Bu esa yoshlar qalbida milliy g'urur va o'zlikni anglash tuyg'ularini yanada mustahkamlashga xizmat qildi.

Musobaqa yakuniga ko'ra, 1-o'rin Chust tumani jamoasiga nasib etdi. Ikkinchi o'rinni

Yangi Namangan tumani jamoasi egalladi. Uchinchi

o'ringa esa To'raqo'rg'on tumani

jamoasi munosib ko'rildi.

G'olib va sovrindorlar tashkilotchilar tomonidan diplom, esdalik va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.

## Vatanparvarlik saboqlari



# Jasorat UCHQUNLARI



Yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda harbiy sport musobaqalarining o'rni beqiyos. Zotan, bunday tadbirlar yoshlarda nafaqat jismoniy chiniqishni, balki intizom, mas'uliyat, jamoaviylik va Vatanga sadoqat kabi yuksak fazilatlarini shakllantiradi.



Sharqiy harbiy okrug Andijon garnizonidagi harbiy qismda o'tkazilgan "Jasorat uchqunlari" harbiy-vatanparvarlik va sport musobaqalarining viloyat bosqichi ana shunday yuksak maqsadlarga xizmat qildi.

Mazkur musobaqada umumta'lim maktablarining 5-9-sinf o'quvchilaridan iborat jamoalar saf tayyorgarligi, tibbiy bilim va amaliy ko'nikmalar, robototexnika, huquqiy savodxonlik hamda milliy sport o'yinlari bo'yicha o'zaro kuch sinashdi. Muhimi, har bir yo'nalish ishtirokchilarning nafaqat jismoniy, balki intellektual salohiyatini ham namoyon etishga xizmat qildi.

Bellashuvlar davomida o'quvchilarning intizomi va yetakchilik qobiliyatlari alohida ko'zga tashlandi. Ayniqsa, ularning Vatanga sadoqat, mas'uliyat va fidoyilik kabi fazilatlarini amalda namoyon etgani tadbirning eng muhim jihatlaridan biri bo'ldi.

Qizg'in va murosasiz kechgan bahslar yakuniga ko'ra, Buloqboshi tumani jamoasi faxrli 1-o'rinni egallab, musobaqaning respublika bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdi.

Tadbir yakunida g'olib va sovrindor jamoalar munosib rag'batlantirildi.

Ochiq muloqot

Hamkorlik

Bandlik

## JIZZAXLIK YOSHLAR BILAN UCHRASHUV



Yoshlar kuni munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi raisi Husan Botirov 200 dan ortiq jizzaxlik yosh bilan uchrashdi.

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filialida o'tkazilgan tadbir H. Botirov yig'ilganlarga "Vatanparvar" tashkilotining aholini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ular orasida sportning texnik va amaliy turlarini ommalashtirish hamda mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb mutaxassislarini tayyorlashga doir faoliyati to'g'risida ma'lumot berdi. Tashkilot o'quv muassasalarida fuqarolar haydovchilik kasbidan tashqari texnik xizmat ko'rsatish va murakkab texnikalarni boshqarish mutaxassislarini tayyorlanishi bildirildi.

"Vatanparvar" tashkilotining yosh sportchilari avtokross, motokross, karting, pnevmatik quroldan o'q otish bo'yicha o'tkazilayotgan respublika va xalqaro chempionatlarda yuqori o'rinlarni qo'lga kiritayotgani haqidagi ma'lumot tadbir ishtirokchilarining olqishiga sazovor bo'ldi.

Ochiq muloqot qizg'in savol-javoblar bilan o'tdi. Tashkilot o'quv muassasalarida kasb-hunar egallash va sport bilan shug'ullanish istagini bildirgan yoshlarga aniq tavsiyalar berildi.

"Rahbar va yoshlar" uchrashuvi doirasida "Vatanparvar" tashkiloti rahbari tashkilotning viloyat kengashi tasarrufidagi o'quv muassasalariga 17 ta yangi "Chevrolet Onix" avtomobili va bitta "Foton" yuk mashinasini topshirdi.

Avtokross, motokross, karting, biatlon, duatlon, pnevmatik quroldan o'q otish, aviamodel, raketamodel va kemamodel sport seksiyalarining ko'rgazmalari tashrif buyuruvchilarda unutilmas taassurot qoldirdi.



## O'ZBEKISTONLIK haydovchilarga qiziqish

Germaniyaning "RecruitMed GmbH & Co. KG" kompaniyasi asoschisi Beate Berri boshchiligidagi delegatsiya "Vatanparvar" tashkiloti Toshkent shahri kengashi tasarrufidagi sportning texnik va amaliy turlari markaziga tashrif buyurdi.

Uchrashuv davomida xorijlik mutaxassislar "Vatanparvar" tashkiloti o'quv muassasasida turli toifalarda avtomototransport haydovchilarini tayyorlash jarayoni, mavjud moddiy-texnik baza, o'quv dasturlari va haydovchilik kasbini o'rgatishga mo'ljallangan innovatsion texnologiyalar bilan tanishdi, shuningdek tashkilot o'quv avtodromida o'rganuvchilarning amaliy mashg'ulot o'tash jarayoniga guvoh bo'ldi.

Tomonlar Germaniyada vaqtincha ishlash uchun "Vatanparvar" tashkiloti o'quv muassasalarida o'zbekistonlik fuqarolarni "CE" va "D" toifalaridagi haydovchilarni tayyorlash masalasini muhokama qildi.

Delegatsiya a'zolari nemis diyorida ayni paytda 20 mingdan ortiq haydovchiga ehtiyoj sezilayotgani va ushbu masala "Vatanparvar" tashkiloti o'quv muassasalarida yordamida hal etilishi rejalashtirilayotganini ma'lum qildi. "Biz sizlarga yaqin kunlar ichida bu boradagi memorandum loyihasini taqdim etamiz va mustahkam hamkorlik o'rnatilishiga umid qilamiz", dedi Beate Berri.

## MANFAATLI memorandum imzolandi



Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Migratsiya agentligi, "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi hamda Yaponiyaning "Onodera User Run" va "Willer Group" kompaniyalari o'rtasida anglashuv memorandumini imzolandi.

Ushbu memorandumning maqsadi O'zbekistonda haydovchilik va avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish sohalarida professional ko'nikmalarga ega kadrlarni tayyorlash hamda ularni Yaponiyaga vaqtincha ishlash uchun yuborish bo'yicha uch tomonlama hamkorlik qilishdan iborat.

Hamkorlik shartlariga ko'ra, "Vatanparvar" tashkiloti o'quv muassasalarida Yaponiyada ishlash istagida bo'lgan fuqarolar yengil, tirkamali va yo'lovchi tashuvchi avtotransport vositalari haydovchisi, yuk ortuvchi, transport boshqaruvchisi hamda avtochilangar mutaxassisliklariga tayyorlanadi. Migratsiya agentligi, o'z navbatida, tayyorlangan kadrlarning kunchiqar mamlakatga yuborilishini ta'minlaydi.

Yaponiya tomoni loyihasiga ko'ra, Sirdaryo viloyatida haydovchilarni tayyorlash va til o'qitishga ixtisoslashgan o'quv markazi hamda avtodromi tashkil etiladi. Mazkur markazda dastlabki bosqichda 100 nafar, keyingi yillar davomida 1 000 nafargacha fuqaro o'qitilib, ushbu mamlakatga ishga yuboriladi.

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti matbuot xizmati

"Rahbar va yoshlar" uchrashuvi

Yoshlar kuni

Sayyor qabul

Jarayon

## MUHIM MUNOSABAT

Yoshlarni vatanparvarlik va qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Bu borada joylarda turli targ'ibot tadbirlari, ochiq muloqotlar va uchrashuvlar muntazam o'tkazib kelinmoqda.

Jumladan, Termiz harbiy prokuraturasi va Surxondaryo viloyati favqulodda vaziyatlar boshqarmasi hamkorligida Termiz davlat universitetida "Rahbar va yoshlar" uchrashuvi o'tkazildi. Unda yoshlarning huquqiy bilimlarini mustahkamlash, ularni turli yot g'oyalarga ta'siridan himoya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

So'z olganlar yoshlar kelajagimiz ekanini ta'kidlab, ularning har tomonlama yetuk, bilimlari va mas'uliyatli bo'lib voyaga yetishi jamiyat taraqqiyoti uchun muhim omil ekanini qayd etdi.

Uchrashuv yakunida talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob olish imkoniga ega bo'ldi. Bunday ochiq muloqotlar yoshlarning fikrlash doirasini kengaytirish, ularda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Shubhasiz, "Rahbar va yoshlar" uchrashuvi kabi tadbirlar yoshlarning hayotga bo'lgan munosabatini shakllantirishda, ularni to'g'ri yo'lga yo'naltirishda muhim o'rin tutadi.

**Adliya podpolkovnigi**  
**A'zam ALMARDONOV,**  
Termiz harbiy prokuraturasi  
o'rinbosari

Prezidentimiz tomonidan joriy yilning 24-fevral kuni mamlakatimiz yoshlari bilan o'tkazilgan ochiq muloqotda belgilab berilgan ustuvor vazifalarga muvofiq, haftaning har payshanbasi Yoshlar kuni etib belgilandi.

## Harbiy-vatanparvarlik TADBIRLARI

Mazkur tashabbus yoshlar bilan ishlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish, ularning muammolarini bevosita o'rganish va ularni qo'llab-quvvatlashni kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Shu munosabat bilan Bektemir tumanidagi 358-umumta'lim maktabida "Rahbar va yoshlar" uchrashuvi yuqori saviyada tashkil etildi. Unda Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi raisi Q. Burxonov, O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi o'rinbosari O. Jo'rayev, Bektemir tumani hokimi va prokurori, tegishli tashkilot va idoralar rahbarlari hamda faol, tashabbuskor va iqtidorli yoshlar ishtirok etdi.

Ochiq va samimiy ruhda o'tgan muloqotda yoshlar tomonidan ilgari surilayotgan istiqbolli startap loyihalar taqdimoti tashkil etilib, ularning amaliy ahamiyati, iqtisodiy samaradorligi va hayotga tatbiq etish imkoniyatlari ham muhokama qilindi.

Rahbarlar tomonidan har bir loyiha bo'yicha aniq tavsiyalar bildirilib, ularni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari yuzasidan zarur tushuntirishlar berildi. Jarayonda maktabda sport va fan to'garaklari uchun yaratilgan sharoitlar ko'zdan kechirildi.

Uchrashuv Mudofaa va Favqulodda vaziyatlar vazirliklari harbiy xizmatchilari va Milliy gvardiya harbiy musiqa akademik litseyi o'quvchilari ko'rgazmali chiqishlaridan iborat vatanparvarlik tadbiriga ulanib ketdi.

**Adliya kapitani**  
**Mahmud ARTIKOV,**  
O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi  
bo'lim katta harbiy prokurori

## INSON QADRI UCHUN

Urganch harbiy prokuraturasi tomonidan Xorazm viloyati mudofaa ishlari boshqarmasi bilan hamkorlikda Urganch shahridagi Kasbiy ko'nikmalar markazida muddatli harbiy xizmatni o'tab qaytgan yoshlar uchun mehnat yarmarkasi tashkil etildi.

Unda Xorazm viloyatidagi turli tashkilotlar o'zlaridagi bo'sh ish o'rinlari bilan ishtirok etdi. Jarayonda yoshlardan 14 nafariga kasb-hunarga o'qish uchun yo'llanma berilgan bo'lsa, 8 nafariga o'zini o'zi band qilishga ko'maklashildi.

Shuningdek, tadbir doirasida yoshlar bilan ochiq muloqot o'tkazilib, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, yoshlar uchun yaratilgan sharoit va imkoniyatlar haqida batafsil ma'lumotlar berildi.

Bundan tashqari, Urganch shahridagi Kasbiy ko'nikmalar markazida ommaviy sayyor qabul o'tkazildi. Unga korxonalar va tashkilotlardan tegishli soha mutaxassislari jalb qilinib, harbiy xizmatchilar, ularning oila a'zolari, pensionerlar va yoshlar tinglandi.

Jarayonda 28 ta murojaatdan 5 tasi joyida ijobiy hal qilingan bo'lsa, 9 tasi nazoratga olindi, 14 tasi yuzasidan huquqiy tushuntirish berildi.

**Adliya podpolkovnigi**  
**Umid NIZAMOV,**  
Urganch harbiy prokurori

Yoshlar kunida Toshkent harbiy prokuraturasi, Yangiyo'l tumani hokimligi va boshqa mutasaddi tashkilotlar hamkorligida harbiy qismlarning birida yosh askarlar hamda tumandagi 28-umumta'lim maktabi o'quvchilari ishtirokida "Rahbar va yoshlar" uchrashuvi o'tkazildi.

## TAKLIFLAR O'RGANILDI

Tadbir ochiq muloqot va samimiy ruhda o'tdi. Unda yoshlarni qiziqtirayotgan ko'plab masalalar muhokama qilindi.

Jarayonda bugungi kunda yoshlarga yaratilgan sharoitlar va keng imtiyozlar, shu bilan birga milliy armiyamizdagi islohotlar, harbiy xizmatchilarga, shu jumladan muddatli harbiy xizmat askarlariga yaratilgan yangi imkoniyatlar haqida so'z yuritildi.

Shuningdek, yoshlar maqsad va takliflari o'rganilib, tajribali mas'ullar tomonidan ularga hayotiy tavsiyalar berildi.

**Adliya mayori**  
**Oybek ARIPBAYEV,**  
Toshkent harbiy prokuraturasi  
yordamchisi





Ko'rik-tanlov

# Mehr, sadoqat va VATANPARVARLIK uyg'unligi



## Farg'ona garnizonida "Ibratli harbiy oila" ko'rik-tanlovining Sharqiy harbiy okrug bosqichi ko'tarinki ruh, yuksak saviya va samimiy muhitda o'tdi.

Harbiy xizmatchilar oilalarining jamiyatdagi o'rmini mustahkamlash, ularning ma'naviy-axloqiy qiyofasini namoyon etish hamda ular o'rtasida vatanparvarlik ruhini keng targ'ib etish maqsadida tashkil etilgan mazkur tanlovda okrug tasarrufidagi harbiy qismlardan saralab olingan eng faol, jips va ibratli oilalar ishtirok etdi. Unda har bir oila nafaqat o'zining kundalik hayoti, balki milliy qadriyatlarga

sodiqliqi, o'zaro hurmat va mehr-muhabbatga asoslangan muhitini sahna orqali ta'sirli tarzda namoyon eta oldi.

Bellashuvlar bir nechta shartlar asosida o'tkazilib, ishtirokchilarning har tomonlama salohiyatini ochib berishga xizmat qildi. Xususan, "Oilam - mening baxtim" shartida oilalar o'z tarixi, qadriyatlarini va o'ziga xos jihatlarni samimiy chiqishlar orqali yoritdi. Ushbu bosqichda oilaviy

birdamlik va ichki iliqlik ayniqsa yaqqol sezildi.

"Darts" sport sharti esa ishtirokchilarning chaqqonligi va jamoaviy uyg'unligini sinovdan o'tkazgan bo'lsa, "Osh chempionati"da milliy an'analarimizning ajralmas qismi bo'lgan oshpazlik mahoratini namoyon qildi. Muhimi, har bir oila o'z uslubida tayyorlagan oshi bilan hakamlar va tomoshabinlar e'tiborini qozondi.

Tanlovga alohida fayz bag'ishlagan "She'riyat gulshani" shartida ishtirokchilar tomonidan o'qilgan she'rlar oilaviy mehr-muhabbat, Vatanga sadoqat va insoniy qadriyatlarni tarannum etdi. Shuningdek, "Oilam - mening faxrim" va "San'atim - saodatim" shartlarida oilalar o'z iqtidorlarini qo'shiq, raqs va sahna ko'rinishlari orqali namoyish

etib, barchaga unutilmas lahzalarni taqdim etdi.

Yakunda g'olib va sovrindorlar Sharqiy harbiy okrug qo'mondonligi tomonidan taqdirlandi. G'olib oila tanlovning Mudofaa vazirligi bosqichida Sharqiy harbiy okrug sharafini himoya qiladi. Bu esa ular zimmasiga yanada yuksak mas'uliyat yuklaydi.

Shubhasiz, bunday ko'rik-tanlovlar harbiy xizmatchilar oilalarining jamiyatdagi o'rmini yanada mustahkamlab, yosh avlodni sog'lom, barkamol va vatanparvar ruhda tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero mustahkam oila kuchli jamiyat va qudratli davlatning mustahkam poqdevoridir.

**Gulihumo MAJIDOVA,**  
**Sharqiy harbiy okrug**  
**matbuot xizmati**  
**bosh mutaxassisi**



MUASSIS  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MUDOFAA VAZIRLIGI

# VATANPARVAR



### Tahririyat kengashi:

general-mayor Hamdam Qarshiyev  
podpolkovnik Ulug'bek Fattaxov  
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti - "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

### Bosh muharrir:

podpolkovnik Ahror Ochilov

### ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

### Telefonlar:

kotibiyat: 55 511-25-90  
buxgalteriya: 55 511-25-76  
yuridik bo'lim: 55 511-25-72

### Navbatchi: kapitan Dilshod Ro'ziqulov

Sahifalovchi: Dilnoza Meliqo'ziyeva  
Musahhih: Mastura Qurbonova

### Buyurtma: V-6115

Hajmi: 6 bosma taboq  
Bichimi: A3  
Adadi: 33 878 nusxa  
Bosishga topshirish vaqti: 14:00  
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "O'zbekiston" NMIU mas'ul.

### Gazeta juma kuni chiqadi.

Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqib boshlagan.

### Nashr ko'rsatkichi: 114.

Bahosi: kelishilgan narxda.

"O'zbekiston" nashriyat-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani Sag'bon ko'chasi, 382-uy.

@Vatanparvargazetasi\_bot  
"Vatanparvar" birlashgan tahririyati bilan bog'lanish uchun telegram bot



**BIZ HAQIMIZDA**

[www.mudofaa.uz](http://www.mudofaa.uz)

[t.me/mv\\_vatanparvar\\_uz](https://t.me/mv_vatanparvar_uz)  
[t.me/mudofaavazirligi](https://t.me/mudofaavazirligi)

[www.mv-vatanparvar.uz](http://www.mv-vatanparvar.uz)  
[vatanparvar-bt@umail.uz](mailto:vatanparvar-bt@umail.uz)

[mudofaavazirligi](https://www.facebook.com/mudofaavazirligi)

[mudofaavazirligi](https://www.instagram.com/mudofaavazirligi)

[www.youtube.com/c/UzArmiya](https://www.youtube.com/c/UzArmiya)

## Ekologik madaniyat

# YASHIL KELAJAK sari amaliy qadam

**Tabiat inson hayotining ajralmas qismi, yashash uchun zarur bo'lgan kislorod manbai esa yashillikdir. Bir insonning kunlik kislorodga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun kamida to'rtta daraxt zarur ekani ham tabiatni asrab-avaylashning naqadar muhim ekanini yaqqol ko'rsatadi. Shu bois yurtimizda "Yashil makon" loyihasi doirasida amalga oshirilayotgan ishlar tobora keng qamrov va izchillik kasb etmoqda.**



Bugungi kunda mamlakatimiz bo'ylab hasharlar va ko'chat ekish aksiyalari yuqori faollikda davom etmoqda. Obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlarida esa harbiy xizmatchilarning ishtiroki alohida e'tiborga molik.

Xususan, Mudofaa vazirligi Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligiga qarashli Toshkent shahri va Toshkent viloyatida joylashgan harbiy qismlar shaxsiy tarkibi Bo'stonliq tumani tog' yonbag'irlarida ko'chat ekish ishlarini amalga oshirdi. Iqlim sharoiti va hudud xususiyatlaridan kelib chiqqan holda turli manzarali va mevali daraxt ko'chatlari ekildi.

Shu kuni yurt himoyachilari ko'chatlar atrofini tartibga keltirib, yer maydonlariga ishlov berdi. Bu orqali tabiatni asrab-avaylash, yashil hududlarni kengaytirishga munosib hissa qo'shishdi.

"Yashil makon barpo etishda o'z hissamni qo'shaman" shiori ostida tashkil etilgan ushbu tadbirda barcha toifadagi harbiy xizmatchilar faol ishtirok etdi. Ular uchun tabiatni asrash nafaqat burch, balki kelajak avlod oldidagi mas'uliyat sifatida namoyon bo'ldi.

Joylarda hashar yo'li bilan olib borilayotgan bunday obodonlashtirish ishlari izchil davom etmoqda. Bu esa yurtimizda ekologik madaniyatni yanada yuksaltirish, tabiiy muhitni muhofaza qilish va yashil hududlarni kengaytirishga xizmat qilmoqda.

**TOQQQ matbuot xizmati**